

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma shaklida

UDK: 33+37+90

Kamoldinov Furqat Foziljon o‘g‘li

**Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning Rossiya
Federatsiyasi bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy-
texnikaviy hamkorligi**

5A 120301 - O‘zbekiston tarixi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Q.Sulaymonov,
tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Farg‘ona - 2017

MUNDARIJA:

Kirish.....	3-10
 I bob. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari.....	11
1.1. Mustaqil O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasining ilk iqtisodiy munosabatlari.....	11-21
1.2. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama aloqalarining o‘rnatilishi va rivojlantirishidagi faoliyati, uning o‘rni va ahamiyati.....	22-32
 II bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.....	33
2.1. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida "Strategik sherikchilik to‘g‘risida shartnoma" va "Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida shartnoma"larning mohiyati va ahamiyati.....	33-40
2.2. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari.....	41-49
 III bob. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida ilmiy va madaniy-ma’rifiy hamkorlik.....	50
3.1. O‘zbekiston va Rossiya fanlar akademiyalari va institutlari o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlikning rivojlanishi.....	50-60
3.2. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy hamkorlik.....	61-68
 Xulosa.....	69-75
 Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	76-79

Kirish

O'zbekiston 1991-yil birinchilardan bo'lib Sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Bu voqea o'zbek xalqining yillar davomida intiqib kutgan orzusi edi. Yurtimiz ichki hayotida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Tashqi siyosat masalasida ham O'zbekiston o'z ovozi va nufuziga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yondashuvlaridan biridir. Mustabid tuzum sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi¹. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston jahon hamjamiyatiga kirib borish, jahonning barcha mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Natijada O'zbekiston jahonning qator mamlakatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni olib borishga yo'l ochib berdi.

Mavzuning dolzarbligi. Magistrlik dissertatsiyasi yurtimiz, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni o'rnatishi va rivojlantirishini ilmiy jihatdan tatqiq etishga bag'ishlanganligi bilan g'oyat zamonaviy va dolzarb ahamiyatga ega. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi eng avvalo Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan boshlab berilgan demokratik islohotlarni izchil davom ettirish va chuqurlashtirish, tinchlik-osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, xalqimiz uchun munosib turmush-tarzini yaratishdan iborat"², - ekanligi bilan bevosita bog'liq. Zero, bu sharaflı vazifalarni muvoffaqiyatli bajarish O'zbekiston Respublikasining hozirgi tashqi siyosati xususan, yon

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. - Т.: Ўзбекистон, 1992. Б. 24.

²Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг сайловолди дастури // Фарғона ҳақиқати. 2016. 16 ноябрь.

qo'shni Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalar va hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev qayd etganlaridek: "Biz O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak",- degan da'vatni havfsizlikni ta'minlash sohasidagi faoliyatimizning asosiy tamoyili sifatida belgilab olganligimizda hamdir. Ushbu insonparvarlikka asoslangan da'vatni ro'yobga chiqarish O'zbekistonning oqilona tashqi siyosati, jumladan, Rossiya Federatsiyasi bilan olib borilayotgan har tomonlama do'stona hamkorlik aloqalari va strategik hamkorlik munosabatlari bilan bevosita uzviy bog'liq. Tarix sinovlaridan o'tgan ushbu haqiqatni mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z nutqlarida, uchrashuvlarida, intervyularida ta'kidlab o'tar edi. Bu buyuk shaxsning O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasining davlatlaroro har tomonlama aloqalarini rivojlantirishning har ikki mamlakat xalqlari uchun qanchalik katta tarixiy ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida aytgan fikrlarini keltirish ushbu magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

1998-yil 5-may kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasiga tashrif buyurdi. Safar oldidan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti ommaviy axborot vositalari vakillariga intervyu berar ekan, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi har tomonlama iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalar va hamkorlikni rivojlantirishdan har ikki mamlakat ham birday mafaatdor ekanligini ta'kidlab shunday degan edi. "Safardan maqsadimiz Rossiya bilan munosabatlarni chuqurlashtirish. O'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashdir. O'ylaymanki, xalqimiz ham bu fikrni ma'qullaydi. Rossiyaning O'zbekistonda umuman Markaziy Osiyoda o'z manfaatlari bor. Shuningdek, avval aytgan fikrlarimni yana qaytarib aytaman: Rossiya bilan nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy masalalarda o'zaro mafaatli, teng huquqli hamkorlik biz uchun ustuvor masala bo'lib qolaveradi"³.

³Ўзбекистон - Россия // Халқ сўзи. 1998. 6 май.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning yuqoridagi so‘zlari o‘zining mazmuni va strategik ahamiyati bilan mazkur magistrlik dissertatsiyasining mavzusini dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Istiqlolimizning besh yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida davlatimizning Birinchi Rahbari Islom Karimov shunday degan edi: “O‘zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning maqsadi ozod vatanda yashash. Xalqimiz mana shu maqsad yo‘lida belni bog‘lab, o‘zini ayamasdan mehnat qilyapti, katta umid bilan yashayapti”⁴. Ushbu so‘zlarda ko‘p millatli O‘zbekiston xalqini o‘zaro hamdo‘stlik, hamkorlik, yagona maqsad yo‘lida birdamlikka intilish g‘oyalari ilgari surilgan edi. "Mustaqillikka erishgandan keyin yuzdan ziyod davlatlar bilan rasmiy aloqa o‘rnatdik", – degan edi Islom Karimov 1998-yil 5-maydagi intervyusida. Lekin, bizning tashqi siyosatimizda Rossiyaning o‘z o‘rni bor. Buni Respublikamizning olis qishloqlarida ham yaxshi tushunadilar. O‘zaro teng huquqli aloqalardan oddiy kishilar ham, korxonalar ham birday manfaatdor. Bu nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki boshqa masalalarda ham yaqqol sezilib turibdi. Biz tashrif davomida shunday munosabatlarimizning huquqiy zaminini mustahkamlash niyatidamiz⁵.

Magistrlik dissertatsiyasi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilgan va jadallik bilan rivojlanayotgan jarayonlarning ilmiy-nazariy hamda amaliy tomonlarini yoritish va tahlil etishga bag‘ishlanganligi bilan bugungi kunda g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Bu jarayonlarning barchasini muvaffaqiyati ikki tomonlama aloqalar va do‘stona munosabatlar bilan bog‘liq ekanligi dissertatsiyada ko‘plab materiallar va aniq misollar asosida yoritib berilganligi ishning ilmiy-nazariy darajasini va dolzarbligini oshiradi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi Mustaqil O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat ekanligida ham ifodalanadi. "Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va ellatlarning tinch-totuv hayot kechirayotganligi istiqlol davrida erishgan eng muhim yutuqlarimizdan biridir", – degan edi Prezidentimiz

⁴ Мулоқот. 1996. 5 сон. Б. 3.

⁵ Ўзбекистон - Россия // Халқ сўзи. 1998. 6 май.

Sh.M.Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 137 ta milliy-madaniy markazning o'zni beqiyos ekanligini inobatga olgan holda millatlararo do'stlik va totuvlikni mustahkamlash, kelgusida ham siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi⁶.

Bugungi kunda ushbu ustuvor yo'nalish hayotda o'zining amaliy tasdig'ini topmoqda. Rossiya Federatsiyasi bilan olib borilayotgan do'stlik, hamkorlik, strategik sherikchilik, ittifoqchilik munosabatlarining o'rnatilishi buning yorqin dalilidir. Magistrlik dissertatsiyasida bu siyosatning O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi uchun, umuman dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun birgalikda kurashish qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berildiki, bu ishning naqadar dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi yana bir bor tasdiqlaydi.

Magistrlik ishini dolzarb mavzuga bag'ishlanganligining yana bir muhim jihatiga unga tarixiylik va aniqlik uzviy bog'lanib mantiqiy yaxlitlikni tashkil etadi. Tarixiylik va aniqlikni butun tarixiy jarayonning ikki tomonini ifodalovchi dialektik kategoriyasidir. O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi ikki tomonlama va har tomonlama hamkorlik munosabatlarini aynan shu dialektik kategoriya negizida tadqiq etish va tegishli muhim xulosalarni ilgari surish mavzuning dolzarblik darajasini ifodalaydi.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbliigi tarix va tarix falsafasi fanlari nuqtai nazaridan dolzarb – nazariy ahamiyatga ega. Isbot talab qilmaydigan haqiqat - aksioma shundan iboratki, O'zbekiston va Rossiyani ko'p asrlik tarixiy aloqalar bog'lab keladi. Bu haqda yirik tarixshunos, sharqshunos , siyosatshunos olimlar yozib qoldirgan. Shu munosabat bilan yirik davlat arbobi Sh.R.Rashidov va mutaffakir olim, akademik I.M.Mo'minovning bu haqdagi fikr-mulohazlarini keltirish ayni muddao bo'ladi.

Sh.R.Rashidov o'zining qator siyosiy publistik va badiiy asarlarida xalqlar do'stligi g'oyasini ilgari surib, Rossiya va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar va aloqalar yuz yillar davomida qaror

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.М.Мирзиёевнинг сайловолди дастури //Фарғона ҳақиқати. 2016. 16 ноябрь.

topganligini aytib o'tib quyidagi fikrlarni keltirgan: "Qadimgi tarixiy manbalarda, rus yilnomalarida sharqning yozuvchilari va mutaffakirlarining asarlarida O'rta Osiyoda slavyanlar haqida uzoq o'tmishda ham bilganlar, ular bilan do'stlik aloqalarini olib borgan. Siyosiy va iqtisodiy aloqalar gohida tasodifiy, gohida vaqti-vaqti bilan, gohida doimiy harakatga ega bo'lgan"⁷. Xalqlarning buzilmas do'stligi, rus adabiyoti va madaniyatini o'zbek klassik adabiyoti bilan aloqasi to'g'risida akademik I.M.Mo'minov qator qimmatli fikrlarni o'z asarlarida yozib qoldirgan, ular o'z ahamiyatini bugun ham yo'qotgani yo'q, balki tobora yuqori qadr-qimmatga ega bo'lib bormoqda⁸. Ushbu fikrlarni mohiyati va mazmuniga e'tibor bersak, Rossiya va O'zbekiston, o'zbek xalqi va rus xalqi o'rtasidagi munosabatlar hamma vaqt o'zaro foydali hamjihatlikka asoslanganligini ko'ramiz. Aynan shu nuqtai nazardan ham tadqiq etilayotgan magistrlik dissertatsiyasining mavzusi bugungi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy hayot uchun dolzarblik ahamiyatiga ega.

Mavzuning dolzarbligi yana shundan iboratki, unda insoniyat tamaddunining qadimiy transchegaraviy yo'nalishi bo'lgan Sharq va G'arbni birlashtiruvchi iqtisodiy, siyosiy va madaniy-insonparvarlik sohalaridagi Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik aloqalarini instutsional mustahkamlash va kengaytirishda muhim o'rin tutgan Buyuk Ipak Yo'lining tarixiy ildizlarini yoritishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytib o'tilganidan, O'zbekiston va Rossiyani ko'p yillik tarixiy aloqalar har jihatdan bog'lab keladi. Ishni yozish davomida ushbu tarixiy aloqalarning ba'zi muhim yo'nalishlari bugungi kunda ham atroflicha o'rganishni taqozo etayotganligini va ular bugun ham dolzarb ahamiyat kasb etishi tadqiq qilinadi. Bugun Rossiya Federatsiyasi bilan nafaqat hukumatlararo, parlamentlararo, idoralararo aloqalar, balki, ishbilarmon doiralar, tadbirkorlar, vakillararo har tomonlama aloqalari an'ana tusini olgan. Aynan mavzuning ana shu tomonlarini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish magistrlik dissertatsiyasining eng

⁷ Ш.Рашидов. Собрание сочинений в пять томах. - М.: 1980. с. 53.

⁸ И.Мўминов. Избрание произведение в четирёх томах. Том. У. - Т.: Ўзбекистон. 1977.

muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar mamlakatlarimiz mustaqilikni qo‘lga kiritganidan so‘ng tubdan yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Tarixdan ma‘lumki, Rossiya birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olgan edi. Davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 20-mart kuni o‘rnatilgan⁹.

Mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasini xalqaro miqyosida, birinchi o‘rinda Rossiya Federatsiyasi bilan olib borayotgan o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari har ikki davlat siyosatining diqqat markazida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Magistrlik dissertatsiyasida mustaqil O‘zbekistonning 1991-2017 yillar davomida Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni o‘rnatilishi va rivojlanib borishining asosiy yo‘nalishlarini uzviy bog‘liqlik va birgalikda analiz qilish, shunga doir xulosalar hamda tavsiyalarni ilgari surish magistrlik dissertatsiyasini ilmiylik va dolzarblik darajasini ko‘rsatadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston mustaqil rivojlanishning bir qator tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi. Erishilgan tarixiy tajribalar, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida har tomonlama iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalarining rivojlanish jarayonlari avvalo Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimizning Rossiya Federatsiyasi bilan ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalarini o‘rganish va tahlil qilishga bag‘ishlab qator mualliflarning ilmiy ishlari va maqolalari chop etilgan. Bular qatoriga H.Sh. Zayamov, H.Ziyayev va boshqalarning ilmiy asarlarini misol qilishimiz mumkin. Ularda O‘zbekiston Respublikasini Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘rifiy munosabatlarning turli jihatlar va tomonlari yoritib berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot ob'ekti. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining 1991-2017-yillar davomida Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy,

⁹ Иттифоқчилик: Ўзбекистон ва Россия ҳамкорлигидаги янги саҳифа // Фидокор. 2006. 7 март.

madaniy va ilmiy–texnikaviy sohalaridagi hamkorligi va aloqalarining rivojlanish jarayonlarini atroflicha tahlil qilishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari. O‘zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan ko‘p tomonlama munosabatlari va aloqalari mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelganligi keng va aniq materiallar negizida o‘rganish va analiz qilish; iqtisodiy sohadagi o‘zaro hamkorlik ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarning ustuvor yo‘nalishi ekanligini tahlil qilish; O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida strategik sherikchilik va ittifoqchilik munosabatlarni o‘rnatilishi, rivojlanishining tarixiy ahamiyatini yoritish; savdo-iqtisodiy hamkorlikning mohiyati va asosiy yo‘nalishlarini keng materiallar asosida tahlil qilish; O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamda madaniy-ma’rifiy aloqalarni rivojlanish jarayonlarini keng ko‘lamda ilmiy tahlil qilish; erishilgan natijalarni asoslangan xulosalar bilan mustahkamlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat;

- mustaqillik sharoitida O‘zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan tenglar ichida teng prinsipiga asoslangan iqtisodiy, madaniy va ilmiy – texnikaviy hamkorligini o‘rganish va analiz qilishga mustaqillik ruhida yangicha yondashuvni amalga oshirilganligi;
- quruq “doktrina” lar emas, balki jonli, aniq va keng hayotiy materiallar negizida mavzuning ilmiyligi, va ahamiyati konkret materiallar va adabiyotlarga asoslangan holda yoritilganligi;
- magistrlik dissertatsiyasi mazmun-mohiyatini belgilovchi omillar va qarashlar alohida ajratib olinib, umumiylik va alohidalik kategoriyalarining birligi asosida tahlil qilinganligi;
- O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining kelgusi istiqbolda ham ulkan imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlash.

Magistrlik dissertatsiyasini nazariy va metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, tashqi siyosat doktrinasini, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari, mavjud monografik va ommaviy tadqiqotlar tashkil qildi.

Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati. Nazariy jihatdan olganda, ushbu tadqiqot O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi har tomonlama aloqa va munosabatlarni mohiyatini va istiqbolini chuqur anglashga hamda to'g'ri fikrlashga xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, bugungi kunda O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida jadal rivojlanib bormoqda. Yuz minglab o'zbek farzandlari Rossiyaning Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida, Rossiyaning bepoyon o'lkalarida yashamoqda va mehnat qilmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda ham magistrlik dissertatsiyasida o'rta qo'yilgan va yechimini topgan masalalar amaliy ahamiyatga ega. Bu jarayonlarni yoshlar atroflicha o'rganishi va o'zlarining amaliy faoliyatini belgilab olishida ushbu magistrlik ishida ko'tarilgan materiallar ma'lum darajada manba va qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari dissertatsiya ishi bilan tanishgan o'quvchi O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik yo'nalishlari to'g'risida zarur tegishli ma'lumotlar oladi. Ulardan ma'ruzalarda, seminar mashg'ulotlarida, targ'ibot-tashviqot ishlarida foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning xronologik chegarasi 1991-yildan 2017-yilgacha, ya'ni mamlakatimiz mustaqillikka erishib, Rossiya Federatsiyasi bilan diplomatik aloqa o'rnatgan kundan to 2017-yilgacha bo'lgan 26 yillik ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnikaviy munosabatlari tarixini o'z ichiga oladi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi: kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 79 betni tashkil etadi.

I bob. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari

I.1 Mustaqil O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy munosabatlari tarixi

Serquyosh O'zbekiston va shimolning bepoyon yerlarida joylashgan azim o'lka Rossiya xalqlari o'rtasidagi aloqalar, iqtisodiy, siyosiy munosabatlar ko'p asrlik tarixga ega ekanligi ma'lum. Bu haqida rus va o'zbek tarixchilari ko'plab tarixiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar, diplomatik xarakterdagi qimmatbaho tarixiy hujjatlar yozib qoldirganlar. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O'zbekiston va Rossiya uchun qadrlil va mazmunli bo'lgan oxirgi chorak asr ya'ni, mustaqillik yillari davomida – bu ikki davlat o'rtasida o'rnatilgan va mustahkamlanib, kengayib borayotgan ko'p tomonlama iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy aloqalarning eng muhim, e'tiborga molik sahifalarini yoritish nazarda tutilgan. O'zbekiston mustaqillik tufayli o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlatdir. Bu yo'l Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, jahonda "O'zbek modeli" deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evalutsion - tadrijiy rivojlanishda isloh etishni nazarda tutadi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanganligi tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan¹⁰. Hozirda O'zbekiston taraqqiyotning besh asosiy tamoyili negizida rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim tamoyili dunyoning barcha mamlakatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Shu asnoda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar shakllanib, rivojlanib bormoqda. O'zaro aloqalarga 1991-yil 26-oktabr kunida Moskva shahriga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyasining ikki kunlik davlat tashrifidan boshlab ilk qadamlar qo'yildi desak xato bo'lmaydi. Mazkur

¹⁰ А.Гоффоров. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. 2005. Б. 114.

tashrifda O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi a‘zolari Rossiya rahbarlari bilan muloqot o‘tkazdilar¹¹. Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi delegatsiyalari O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida tarixan tarkib topgan har tomonlama do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga qaror qildilar.

O‘zaro manfaatdorlik va hamkorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan O‘zbekiston - Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar yangicha sifat kasb etib kundankunga rivojlanib bormoqda. Yuqorida aytilganidek O‘zbekiston va Rossiyani ko‘p yillik tarixiy aloqalar bog‘lab keladi. Yangi O‘zbekiston va Rossiya tarixiga bag‘ishlangan kitoblarda tadqiqotchi olimlar o‘zlarining eskicha “Shoviniistik”, yani, “Millatchilik” qarashlaridan voz kechib yuzaga kelgan voqelikni, tarixiy haqiqatni – do‘stlik, o‘zaro hamkorlik, tinchlik va barqarorlik munosabatlari asosiy ustuvor siyosat bo‘lib qolganini e‘tirof etmoqdalar. Mamlakatlarimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng bu davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tubdan yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Yaqin o‘tmish tarixidan ma‘lumki, Rossiya birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olgan davlat. Davlatlarimiz o‘rtasidagi diplomatik munosabatlari 1992-yil 20-mart kuni o‘rnatildi. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi tarixan qisqa ammo asrlarga tatigulik natijalarga bir nazar tashlasak. O‘rtida qolgan yillar mobaynida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida strategik sherikchilik va ittifoqchilik, o‘zaro manfaatdorlik, bir-birining manfaatlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan do‘stona munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida katta samarali yo‘lni bosib o‘tganligini ko‘ramiz. Strategik sherikchilik – bu bir butun kelajak davomida o‘zaro tenglik va beg‘arazlik asosida iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanishni bildiradi. Ikki mamlakat Rossiya - O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanishining muhim bosqishlari sifatida quyidagi tarixiy voqealarni ko‘rsatish zarurki, ularning har biri tarixda o‘zining betakror o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib turadi. Shubhasiz, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi sifat jihatdan yangi munosabatlar, shartnoma va kelishuvlarning strategik yo‘llarini ochib bergan hujjatlarning asosini 1992-yil

¹¹ Ўзбекистон ва Россия - тенг ҳуқуқлилар мулоқоти //Халқ сўзи.1991. 29 октябрь.

30-mayda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma" tashkil etadi. Ushbu tarixiy hujjat asosida 2004-yil 16-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi "Strategik sheriklik to'g'risida shartnoma" mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi¹². Shu bilan birga, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning turli sohalarini qamrab olgan ikki tomonlama shartnomalarning salmoqli asoslari ham mavjud. Bunday hujjatlar doirasida hukumatlararo, parlamentlararo va idoralararo aloqalar, tadbirkor-ishbilarmonlar ishtirokida muntazam o'tkazib kelinayotgan anjumanlar, tadbirkor-biznesmenlar va o'rta va kichik xususiy mulk egalarining uchrashuvlari, mintaqalararo hamkorlikning faollashuvi rivojlanib bormoqda. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy yo'nalishlaridagi o'zaro munosabatlar, ko'p tomonlama uzoq muddatli manfaatlarni ko'zlagan holda ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmoqda. Shuni ta'kidlash zarurki, O'zbekiston Rossiya hamda boshqa Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan mamlakatlar bilan o'zaro hamdo'stlik aloqalari va munosabatlarini Moskvadagi O'zbekiston elchixonasi binosida olib borganligini ta'kidlash zarur. Bu uchrashuvlar va shartnomalar hech qanday tashqi ta'sirlarsiz, tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshirilgan. Misol uchun bir necha faktlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq. 1992-yil 20-martda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida diplomatik munosabatlar yuridik jihatdan mustahkamlandi. Ikki mamlakat: O'zbekiston va Rossiya rahbarlari tomonidan 1992-yil 30-mayda imzolangan "Davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik asoslari to'g'risida shartnoma", 2005-yil 14-noyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma" tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

1994-yil 19-aprelda Moskvada O'zbekiston Respublikasi va Gruziya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi bayonnoma imzolandi; 23-

¹² www.Jahonnews.uz. O'zbekiston va Rossiya: Tinchlik va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik.

aprel Moskvada, O'zbekiston Respublikasi elchixonasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risida bayonnoma imzolandi; 1994-yil 15-aprelda O'zbekistonning Rossiyadagi elchixonasida O'zbekiston va Chili Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi hujjat imzolandi; 1994-yil 16-sentabrda O'zbekiston Respublikasi elchixonasida O'zbekiston Respublikasi va Chad Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi hujjat imzolandi; 2-oktabr Moskvadagi O'zbekiston elchixonasida O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon davlatlari o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi bayonnoma imzolandi; Shu kuni O'zbekiston Respublikasi va Kambodja qirolligi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi bayonnoma Moskvada imzolandi; 1994-yil 6-oktabrda O'zbekiston Respublikasining Moskvadagi elchixonasida O'zbekiston Respublikasi va Ruminiya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi bayonnoma imzolandi; Shu kuni Moskvada O'zbekiston Respublikasi va Senegal Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi bayonnoma imzolandi; 1994-yil 27-oktabrda Moskvadagi O'zbekiston Respublikasi elchixonasida O'zbekiston va Armaniston Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi bayonnoma imzolandi. Shu o'rinda mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga, diplomatik munosabatlar davrasiga kirishda Rossiya, Moskva shahrida olib borilgan diplomatik aloqalar va munosabatlar yetakchi o'rin egallaganini qayd etish kerak. O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan ko'p tomonlama aloqalarni o'rnatishi va mustahkamlashining yana bir muhim va mustahkam tamal toshi 2004-yil 16-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida "Strategik sherikchilik to'g'risida shartnoma", 2005-yil 14-noyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma"larda qo'yilgan edi. Mazkur shartomalarda harbiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalarda o'zaro sherikchilikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Ushbu shartnomalarda milliy mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni

mustahkamlash, shuningdek terrorizmga, ommaviy qirg'in qurollarini tarqalishiga, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga hamda yangi tahdid va xavf xatarlarga qarshi kurashish masalalarida yaqin hamkorlik qilish ko'zda tutilgan¹³. Chinakam mustaqillik va teng huquqiylik yo'lining barcha rasmiy va huquqiy negizlari Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Rossiyaga rasmiy tashrifida, 2010-yil 15-aprelda Kreml'da bo'lib o'tgan uchrashuvida o'z yechimini topdi, desak xato bo'lmaydi. Muammolar yig'ilib murakkablashib, tugunlarga aylanib qolgan edi. Xuddi shu vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov to'g'ri yo'lni tanladi, yani, Markaziy Osiyo hududida o'ta xavfli siyosiy, harbiy, iqtisodiy vaziyatlar vujudga kelayotgan bir sharoitda Rossiya kabi vazmin va iqtisodiy va qudratli davlat bilan sherikchilik ayni davr zaruriyati ekanligini anglab yetdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Rossiyaga rasmiy tashrifining asosiy tadbirlari 15-aprel kuni Kreml'da bo'lib o'tdi. Islom Karimov va Vladimir Putinning tor doiradagi uchrashuvida O'zbekiston va Rossiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zaro hamkorlik masalalari ratsional, aql-tafakkur asosida hal etildi. Oddiy so'zlar bilan aytganda, kim-kimga muhtoj masalasi bilan emas, balki chinakam hayotiy ehtiyoj, o'z xalqining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish munosabatlarni yo'lga qo'yish masalalari o'rta qo'yildi¹⁴.

Bugungi kunda O'zbekistonda 850 dan ortiq Rossiya kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda yuzdan ortiq Rossiya korxonalarning vakolatxonalari ro'yxatga olingan. Shunisi e'tiborliki, Rossiyada O'zbekiston kapitali ishtirokidagi 400 dan ortiq kompaniya faoliyat olib bormoqda. Bu iqtisodiy hamkorlik jarayonlari xususida keyingi boblar va paragraflarda so'z boradi. O'zbekiston va Rossiya davlatlari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlar yilma-yil, bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda.

¹³ Из истории укрепления взаимно выгодного сотрудничества и безопасности. //Ўз.МУ хабарлари. 2 сон. 2008. Б. 105.

¹⁴ www.uza.uz. O'zbekiston va MDH davlatlari.

Ushbu ishda keyingi yillarda amalga oshirilgan siyosiy diplomatik aloqalar, rasmiy va norasmiy tashriflar, uchrashuvlarda muhokama etilgan masalalar va qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati qisqacha yoritiladi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi oliy darajadagi siyosiy muloqotlar muntazamlik kasb etgan. Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi imzolangan qariyb ikki yuzta davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo hujjatlar ikki tomonlama hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asosini tashkil etadi. Ularning asosida 2004-yil 16-iyunda imzolangan "Strategik sherikchilik to'g'risida shartnoma" va 2005-yil 15-noyabrda imzolangan "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma"lar yotadi. Ular asosiy hujjatlar bo'lib, mazkur shartnomalarda iqtisodiy, harbiy-siyosiy va boshqa sohalarida o'zaro sheriklikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Ushbu shartnomalarda milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, terrorizmga, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga hamda yangi tahdidlarga, diniy ekstremizm va terrorizmning tarqalishiga va boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashish masalalarida yaqin hamkorlik qilish ko'zda tutilgan. O'zbekiston va Rossiya davlatlari mazkur shartnomalarda belgilangan g'oyat dolzarb masalalar o'zining milliy manfaatlariga mos kelishni tasdiqladi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi har tomonlama siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni navbatdagi bosqichi o'sha vaqtdagi Rossiya Prezidenti Dmitriy Medvedevning 2010-yil 22-yanvardagi davlat tashrifi bilan boshlandi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Dmirtiy Medvedevni Samarqand aeroportida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov kutib oldi. O'zaro suhbatda, oliy darajadagi uchrashuvda savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy, gumanitar sohalaridagi hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarilayotganligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi oliy darajadagi siyosiy muloqotlar muntazam ravishda rivojlanib bordi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2010-yilning aprel oyida rasmiy tashrif bilan Rossiyada bo'ldi. 2012-

yilning 4-iyunida Vladimir Putin O'zbekiston Birinchi Prezidentining taklifiga javoban rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Mazkur tashrif yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risida" Dekloratsiya va boshqa bir qator hujjatlar imzolandi. Ushbu imzolangan hujjatlar ikki mamlakat xalqlari manfaatlarini yo'lida o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishning siyosiy-huquqiy va iqtisodiy-siyosatini asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Avval ta'kidlab o'tilganidek Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi rasmiy diplomatik va o'zaro hamkorlik munosabatlari muntazamlik bilan davom etmoqda. Bu aloqalar va keng yo'nalishli hamkorlik 2004-yil imzolangan "Strategik sherikchilik" va 2005-yil 14-noyabrda imzolangan "Ittifoqdoshlik munosabatlari" zahirida yana ham rivojlanmoqda.

2010-yil 12-13-noyabr kunlari mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Kengashi Raisi V.Matviyenko tashrif buyurdi. Tashrif doirasida u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis senatining raisi va O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi spikeri bilan muzokaralar olib bordi. Ularda Rossiya va O'zbekiston o'rtasida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanayotganligi ta'kidlandi.

Savdo aloqalari yil sayin rivojlanib bordi. Natijada 2013-yilning to'qqizinchi oyi yakunlariga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi tovar ayiriboshlash 5,4 milliard dollarni tashkil etdi¹⁵.

O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi munosabatlarining rivojlanishida muntazamlik va doimiylik ko'zga tashlanadi. Bu borada O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa uning 2013-yil 14-15-aprel kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan Moskvaga tashrifi ko'p qirrali va samarali bo'ldi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiyaga rasmiy tashrifining asosiy tadbirlari 15-aprel kuni Kremlda bo'lib o'tdi. Islom Karimov va Vladimir Putinning yakkama-yakka, tor doiradagi uchrashuvida

¹⁵ www.uza.uz. O'zbekiston va MDH davlatlari.

siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarning bugungi holati va kelgusidagi istiqbollari muhokama etildi¹⁶.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega dolzarb muammolar, jumladan, Afg'onistondagi vaziyat rivoji, jinoyatchilikning tarqalishiga qarshi birgalikda kurashish yuzasidan fikr almashishdi. Ushbu uchrashuvda O'zbekiston va Rossiya rahbarlari davlatlarimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorligi masalalarni ham ko'rib chiqdilar.

Kengaytirilgan tarkibdagi muhokamalarda esa asosiy e'tibor iqtisodiy hamkorlik masalalariga qaratildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston - Rossiya munosabatlarining mustahkam asosini tashkil etishi ta'kidlandi.

2012-yil yakunlari bo'yicha o'zaro tovar ayrboshlash hajmi 12,6 foizga o'sdi va 7,6 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

2013-yil 29-noyabrda Oqsaroyda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun Toshkentga kelgan Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi Dmitriy Medvedevni qabul qildi va ikki mamlakat o'rtasida olib borayotgan aloqalarini ishonchli va salmoqli bo'layotganligidan mamnun ekanligini ta'kidladi. Mamlakatlarimiz o'rtasida yo'lga qo'yilgan sobit qadamli, izchil siyosiy muloqot ikki tomonlama munosabatlarda muhim o'rin tutishi, ochiq va do'stona fikr almashish, turli yo'nalashlardagi, jumladan xalqaro miqyosda va mintaqa doirasidagi o'zaro hamkorlikka oid masalalarni muhokama etish va tegishli qarorlar qabul qilish imkonini berayotganini ta'kidladi. Suhbat chog'ida O'zbekiston va Rossiya bir-biri uchun doim ochiqligi, qaror topgan do'stlik va hamkorlik rishtalari yuksak qadrlanishi va kelgusida ham ushbu prinsiplarga sodiq qolishligi ta'kidlandi¹⁷.

¹⁶ www.uzreport.uz

¹⁷ Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2013. 29 ноябрь.

2008-yilning 14-15-aprel kunlari Moskvada Oliy darajadagi O'zbekiston-Rossiya uchrashuvining salmoqli natijalari va uning asosida imzolangan ikki tomonlama qator hujjatlar, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik sohalarida davlatlararo munosabatlarni faollashtirishga xizmat qiladi. Mazkur uchrashuvda tomonlarning o'zaro hamkorlik natijalari o'laroq savdo-sotiqning yuqori ko'rsatkichlarini saqlab qolishga erishdi, holbuki, jahonda moliyaviy inqiroz davom etayotgan edi.

O'zbekiston hamon Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi mamalakatlari orasidagi asosiy savdo sherikliklaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston tashqi savdo-iqtisodiy aylanmasining qariyb 18 foizi Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston va Rossiya rahbarlari davlatlarimizning BMT, SHHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalardagi faoliyati va hamkorligi masalalarini ko'rib chiqib bu boradagi global ahamiyatga ega vazifalarni aniqlab oldilar. Shunisi yana ham ahamiyatliki, o'tgan muzokaralarda tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonalarni tashkil etish orqali hamkorlikni yanada rivojlantirish, tovar ayriboshlash salmog'ini ko'paytirish, transport kommunikatsiyalarining keng sohalarida o'zaro hamkorlikni kengaytirishning yangi marralari belgilab olindi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik, yoqilg'i-energetika kompleksi hamda iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari sohalarida o'zaro hamkorlik masalalari, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi "Hukumatlararo Iqtisodiy Komissiya"si faoliyati doirasida muntazam ko'rib chiqilmoqda. Ushbu komissiyaning 14-majlisi 2012-yilning dekabri oyida bo'lib o'tgan edi. Keyingi yig'ilishlar rejaga muvofiq boshqa a'zo davlatlarda ham o'tkazib kelinmoqda. Uning yig'ilishlarida bo'lib o'tayotgan muzokaralar chog'ida komissiya faoliyati va istiqboldagi rejalar muhokama etilmoqda. Komissiyaning keyingi yig'ilishida tomonlar madaniyat, ilm-fan, ta'lim, sport va turizm bo'yicha vazirlik va idoralar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish, fanlar akademiyalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashni ko'zda tutuvchi gumanitar sohadagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

2013-yil 16-aprel kuni ikki mamlakat rahbarlari Toshketda uchrashdilar. Muzokaralar yakuni bo'yicha "Investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida bitim", 2013-2017-yillarga mo'ljallangan "Iqtisodiy Hamkorlik Dasturi", 2013-2015-yillarga mo'ljallangan "Madaniy-gumanitar va ilmiy-texnikaviy sohalarda hamkorlik dasturi" imzolandi va o'tgan yillar davomida amalga oshirildi. Shuningdek tashrif doirasida atrof muhitni muhofaza qilish muassasalari, bojxona va soliq xizmatlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida hujjatlar ham qabul qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va Vladimir Putin ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda muzokaralar ochiq va o'zaro ishonch ruhida o'tgani, ko'rib chiqilgan barcha masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyasi hamda fikrlari bir-biriga o'xshashligi va yaqinligini, imzolangan hujjatlar ikki mamlakat xalqlari manfaatlari yo'lida o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidladilar¹⁸.

Ishchanlik muhitida o'tgan muzokaralar, imzolangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni kengaytirish, munosabatlarni yangi amaliy mazmun bilan boyitish yo'lidan rivojlanib borayotganini ta'kidlashga asos bo'ladi. Shuni yana bir bor ta'kidlash zarurki, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni rivojlantirishda O'zbekiston Birinchi Prezident Islom Karimovning 2010-yilning aprel oyidagi Rossiyaga qilgan rasmiy tashrifi, 2012-yilning iyun oyida Vladimir Putinning O'zbekistonga rasmiy tashrifining umumlashgan natijalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning asosida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risida" Dekloratsiya va boshqa bir qator hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga ikki mamlakatlar rahbarlarining rasmiy va do'stona mazmundagi qarashlarining ko'p masalalar bo'yicha pozitsiyalarining o'xshashligi va o'zaro manfaatlarga mos tushishi muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. "Mamlakatlarimiz o'rtasidagi ulkan salohiyatga ega bo'lgan o'zaro hamkorlik

¹⁸ Ўз.А. Анвар Бобоев, Сарвар Ўрмонов. Тошкент-Москва-Тошкент. 16.04.2013

munosabatlari bundan keyin ham chuqurlashgani holda sermahsul aloqalarning yangidan-yangi sohalarini qamrab olishga shubha yo'q", - degan edi O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining nutqlaridan birida. Zero, bu siyosiy-iqtisodiy hamkorlik aloqalari O'zbekiston hamda Rossiya fuqarolari uchun birdek manfaatli va istiqbolli jarayon sanaladi.

I. 2 O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishdagi faoliyati, uning tarixiy ahamiyati

"Bizning bosh maqsadimiz", - dedi o‘z dasturida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev - O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan boshlab berilgan demokratik islohotlarni izchil davom ettirish va chuqurlashtirish, tinchlik-osoyishtalik va barqarorlikni ta’minlash, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat¹⁹.

Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi dasturida boshlangan ichki va tashqi siyosat sohasidagi bu ulkan vazifalarning tamal toshini O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qo‘yganligini xalqimiz, butun xalqaro jamoatchilik doimo mamnuniyat bilan qayd etadi. 160 dan ortiq davlatlar, yuzlab xalqaro tashkilotlar va harakatlar bilan tuzilgan shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, tarixiy hujjatlarning tashabbuskori va rahnamosi Islom Karimov bo‘ldi. Mustaqilligimizning 25 yilligi davomida bu buyuk shaxs, davlat va jamoat arbobi xalqaro siyosatda olib borgan oqilona, dono siyosati va faoliyati natijasida O‘zbekiston, o‘zbek xalqi, mamlakatimizning barcha mehnatkashlari tinch, erkin, barqaror va farovon hayot kechirib kelmoqda."Barchamiz uchun aziz va qadrli bo‘lgan Islom Abduga‘aniyevich Karimov bugun oramizda yo‘q. Biroq, Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan "O‘zbek modeli"ni amalga oshirishda va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillariga biz o‘z ishimizda doim foydalanamiz",- deb aytdi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqida.

Tarixan qisqa davrda, ammo yakunlari asrlarga teng ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bu zafarli yo‘lning yo‘lboshchisi va ijodkori Islom

¹⁹ Халқ сўзи. 2016. 19 декабрь.

Karimov bo'ldi. Uning boshchiligida ishlab chiqilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli" tarixiy tajribada va amalda g'alaba qildi. Bugun mamlakatimizni o'rta muddatli istiqbolda yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va madernizatsiya qilish dasturini izchil amalga oshirish dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning sermazmun harakati va faoliyati bugungi kunda Respublikamizning Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida qo'yilgan muhim vazifalardan birini amalga oshirishda, ya'ni aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarni keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, magistrlik dissertatsiyasi mavzusining maqsad va vazifalariga monand ravishda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama munosabatlarini, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar tarixini, bugunini rivojlantirish istiqbollari to'g'risidagi qarashlarini, fikr-mulohazalarini, ilmiy-nazariy merosini va yana turli sohada amalga oshirgan ishlarini qisqacha ko'rib chiqishni lozim topdik.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq Rossiya Federatsiyasi, rus xalqiga munosabati naqadar maqsadli, istiqbolli, erkin, muvofaqqiyatli, yuksak samarali bo'lganligi uning qator asarlari, nutqlari, intervyu va maqolalarida o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Quyida O'zbekiston davlatining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diplomatik aloqalari, ularning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining tarixiy ahamiyati to'g'risidagi fikr-qarashlari, ilmiy-nazariy va strategik ahamiyatiga doir mulohazalari yoritiladi. Islom Karimov 1992-yilda nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li" nomli kitobida mamlakatimizni Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlar tarixi yoritilgan quyidagi qator muhim fikrlar, xulosalar bugungi kunda ham amaliy - hayotiy ahamiyatga ega.

"O'zbekistonning MDH ("Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi") mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlaridagi eng muhim masala suveren Rossiya bilan teng

huquqli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash hamda uning potensialiga tayanishdir", - deb yozgan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. 70 yildan ko'proq vaqt mobaynida O'zbekiston bilan Rossiya Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lib hayotning barcha sohalarida, iqtisodiyot va madaniyat sohasida bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bu aloqalarning ildizlari yana ham olisroq o'timishga borib taqaladi. Rossiyaning O'zbekiston hayotiga, uning taqdiri va kelajagiga real ta'sirini e'tiborga olgan holda hamkorligimizning ahamiyati yetarli darajada katta ekanligini xolisona e'tirof etish kerak. Endigina Sobiq Sovetlar Ittifoqidan chiqib mustaqillik taraqqiyot yo'liga o'tgan O'zbekiston uchun Rossiya bilan iqtisodiy hamkorlik zaruriy hodisa va ehtiyojga aylandi. Bu ob'ektiv haqiqatni Islom Karimov g'oyat teran va mazmunli bayon qilib beradi. Xonadonimizni asrab-avaylash, mavjud chegaralarimizning xavfsizligini saqlab qolish uchun qudratli potensialga ega bo'lgan Rossiya tomonidan madad ham zarur. Jamiyat mustahkamligi va taraqqiyoti uning iqtisodiy zaminlari bilan bog'liq ekanligi ob'ektiv qonuniyat. Aynan ana shu hal qiluvchi omilni chuqur anglab yetgan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu haqiqatni ro'yobga chiqarishi, qo'shni qudratli davlat Rossiya bilan bevosita bog'liqligini quyidagicha izohlagan edi: "Iqtisodiy muammolarni hal etishda, tanglikdan chiqish yo'llarini belgilashda Rossiya bilan o'zaro aloqalar ta'sir g'oyat katta",- degan edi Islom Karimov. O'zbekistonning iqtisodiyotini sog'lomlashtirish uchun Rossiyadan Respublikaga hayotiy muhim resurslar - metall, neft, yog'och va taxta, transport vositalari, texnologiya uskunalari va boshqa tovarlar uzluksiz yetkazib berilishi alohida ahamiyatga ega. Ayni vaqtda O'zbekiston Rossiyaga paxta tolasi, kunjara, ipak, meva-sabzavot mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni yetkazib berayotgan asosiy respublikadir"²⁰.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar

²⁰ Islom Karimov. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т.: Ўзбекистон. 1999. Б. 28. .

Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi nutqida "Biz Rossiyaga 10 milliard 800 million dollarlik mahsulot eksport qilishimiz kerak".- deb aytdi²¹.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonni Rossiya Federatsiyasi bilan ko'p tomonlama hamkorligi va aloqalarini kengaytirish hamda mustahkamlash mamlakatimiz aholisini va o'zbek millatini xohish-irodasini ifodasi ekanligini qayta va qayta ta'riflaydi. "O'zbekiston aholisining ko'pchiligi Rossiya bilan do'stlikni saqlab qolishni istayotganligini ham hisobga olish zarur",- degan edi mustaqilligimizni dastlabki yilida Islom Karimov. O'ta ziyrak va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi sifatida Rossiya Federatsiyasi bilan strategik maqsadlarni ko'zda tutgan holda mulohaza yuritadi. Rossiya bilan do'stlikni saqlab qolish bu Sobiq Markaz (SSSR markazi Moskva) bilan emas, balki ayni Rossiya bilan do'stlikni saqlab qolishni xohlamoqda. Aslini olganda, deb aniqlik kiritadi o'z fikriga Islom Karimov Rossiya ham Sobiq Ittifoqdagi respublikalar kabi mustaqil emas edi. (Bu o'rinda Islom Karimov ma'muriy buyruqbozlik va dispotizmga asoslangan "Sotsialistik" tuzumni nazarda tutmoqda). U (Rossiya izoh) endigina mustaqil bo'lib qoldi²².

O'zbekiston Respublikasini Rossiya Federatsiyasi 1992-yil 20-mart kuni tan olgan. Shu kunning o'zida ikki mamlakat o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatilgan. 1992-yil 30-martda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik aloqalari to'g'risida shartnoma" Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning bevosita tashabbusi bilan vujudga kelgan. Unda siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi munosabatlarni yanada rivojlantirishda qudratli omil bo'lib xizmat qiladigan va har ikkala mustaqil davlatlarning tub manfaatlariga mos keladigan strategik ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

O'zbekiston Rossiya bilan iqtisodiy jihatdan juda yaqin bog'langandir. Shu sababli ijtimoiy hayotning boshqa sohalarga ham ta'siri juda kuchli bo'ldi. Mustaqilligimizning birinchi yillarida O'zbekistonning Rossiya bilan

²¹ www.uzreport.uz

²² Ислом Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т.: Ўзбекистон. 1999. Б. 465.

munosabatlari samarali hamkorlikka, xalqlarimiz o'rtasida vujudga kelgan ko'p tomonlama iqtisodiy, madaniy, ilmiy va insoniy aloqalarni yangicha asosda mustahkamlash va rivojlantirishga olib keldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Sobiq Ittifoq hududida mustaqil suveren davlatlarni vujudga kelishini tarixning hukmi sifatida sharhlagan edi. Bugun,- deb yozgan edi, - 1995-yilda Islom Karimov, - "Har bir mustaqil mamlakatning o'z tarixi, o'z xususiyatlari, o'z rivojlanish yo'li borligini va kelajakda ularning har biri jahon jamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashini tushunib olish vaqti yetdi". Islom Karimovni buyuk shaxs, uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi, yetakchi davlat va partiya arbobi kabi sifatida yurtimizni milliy mustaqillikka olib kelgan mashaqqatli va sharaflı kurash tarixining o'chmas sahifalarida yaqqol ko'ramiz. Bu sahifalar shuning uchun abadiyatga dahldor aynan ana shu mustaqillikka erishish ostonasida haqiqiy milliy erkinlik o'z taqdirini o'zi belgilash tenglar ichida teng bo'lish, yani, ezgu niyatlarning tamal toshi qo'yildi. Sobiq sovet davlati hali o'zining hukumronlik repressiv siyosati davom etayotgan "Paxta ishi" degan tuhmat bilan odamlar qamalgan, ta'ziq va ta'qiblarga uchragan xalq o'rtasida tushkunlik, ertangi kunga ishonchsizlik kayfiyati, qo'rquv va vahima keng tarqalgan bir paytda Islom Karimov O'zbekiston rahbari sifatida mustaqillikka erishish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Eski mustabid tuzumning Moskvadagi tayanchlari (KPSS M.K siyosiy byurosi), Rossiya va rus xalqining sofdil, do'stona kayfiyatiga tamoman zid ravishda buyuk davlatchilik shovinizmi siyosati va g'oyalarini ilgari surayotgan edi. Bunday kalabin siyosatga qarama-qarshi tarzda Islom Karimov tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatligini asrash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiyotni tubdan isloh etish, milliy armiyani shakllantirish, sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport sohalariga e'tibor qaratish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash kabi ko'pdan-ko'p dolzarb vazifalar ustuvor yo'nalishlar sifatida kun

tartibiga qo'yildi, uning ifodasi "O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi",- degan tamoyilda belgilandi.

Yana bir diqqatga sazovor fikr shundaki, Sovet mafkurasi chuqur ildiz otgan, kommunistik mafkuraning yakka hokimligi qaror topgan siyosiy muhitda Islom Karimovning har bir so'zida, har bir chiqishida o'z xalqiga nisbatan ulkan muhabbat tuyg'usi yorqin sezilib turadi. Islom Karimov millatlararo do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashda eng muhim omillardan biri bu - rus tili masalasi ekanligini ta'kidladi. Ayrim tilshunos adabiyotchi va boshqa soha vakillari "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi to'g'risida"gi qonunni bir tomonlama tahlil qilishga, boshqa tillarni, jumladan rus tilini nufuzini kamsitishga urinayotgan edilar. Bu haqida Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish masalaga to'la oydinlik kiritadi. "Har qaysi millat, katta yoki kichikligidan qat'iy nazar, o'z ona tilini hurmat qiladi. O'zbeklar o'zbek tilini hurmat qilsa, tojiklar tojik tilini, qozoqlar qozoq tilini, aytaylik, boshqa millat vakili katta yo kichik bo'lishiga qaramasdan o'z tilini hurmat qiladi. Lekin ana shu xalqlarning hammasini birlashtirish uchun ularning bir oila a'zolari kabi inoq va hamjihat bo'lishlarida rus tili muhim vosita hisoblanadi. Rus tili boshqa biror millat tilining nufuzini kamsitmagan, o'sha millat g'ururiga tegmagan holda yagona oilaga birlashgan xalqlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga, qo'yilgan maqsadlarga erishishga bebaho yordam berishi mumkin. O'rtoqlar, agar rus millatiga mansub kishi o'zbek tilini bilsa, o'zbek esa rus tilini bilsa, buning ustiga hozirgi yoshlarimiz yana uchinchi tilni ham bilsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lasmidi?",- deb aytgan edi Islom Karimov o'z nutqida²³.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning jahonda tutgan o'rni va mavqeyi, yirik siyosatchi arbob sifatida xalqaro siyosiy muhit va siyosiy harakatlarning borishiga ko'rsatgan samarali ijobiy ta'sirini dunyoning ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etilgan. Hatto maxsus asarlarini bu ulug' shaxsning hayoti va ijodiga bag'ishlagan. Shular jumlasidan, hozir Germaniyada yashayotgan Leonid Levitinni Amerikalik C.Karlayl bilan

²³ Ислон Каримов .Ўзбекстон мустақилликка эришиш оstonасида. - Т.: Ўзбекистон. 2011. Б. 70.

hamkorlikda yozgan “Islom Karimov - yangi O‘zbekiston Prezidenti” nomli kitobidir. Bu asarni Avstriya Respublikasining Federal kansleri Frans Branitskiy o‘z davrining yirik siyosiy davlat arbobi Islom Karimovga bag‘ishlagani bilan katta e‘tiborga loyiq ekanligini ta’kidlaydi. ”Prezident Karimov davlat rahbarligining yangi avlodini o‘zida boshqalardan ko‘ra to‘laroq mujassam etgan”, - degan edi Frans Branitskiy. Kitob aynan shu jihati bilan Yevropa va butun dunyo uchun nihoyatda muhim bo‘lgan mintaqaning nufuzli siyosiy arboblardan birining shakllanishi va siyosiy istiqbollari bilan jamiyatning keng qatlamlarini tanishtirgan holda axborot kemptigini to‘ldiradi”²⁴.

Magistrlik dissertatsiyasi, garchi O‘zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan ko‘p tomonlama aloqalari tarixi, hozirgi bosqichi va istiqboli masalalariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, uning keng qamrovli mohiyatini yoritish uchun mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov to‘g‘risida dastlab o‘z fikr mulohazalari, uning shaxsi, siyosiy-falsafiy tafakkuri, “O‘zbek modeli”ni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdagi jasoratini to‘laroq yoritish maqsadida Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan adabiyotlarga murojat etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashish O‘zbekiston Respublikasini jahon hamjamiyati mamlakatlari, xususan Islom Karimovni Rossiya Federatsiyasi bilan har tomonlama aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirishdagi tutgan o‘rni va ahamiyatini keng ochib berish imkoniyatini yaratadi. Ayni, shu maqsadda o‘zining ob’ektivligi, beg‘araz yondashuvi va tahlili bilan ajralib turadigan asar “Islom Karimov - Yangi O‘zbekiston Prezidenti” asarida ilgari surilgan g‘oya, fikr-mulohazalar, Islom Karimov siyosiy portretiga berilgan ayrim chizgilarga murojaat etdik. Bu kitobning mualliflari turli mintaqalardan: Leonid Levitin - yuridik fanlari doktori, ko‘p yillar Qirg‘iziston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi bo‘lib ishlagan; Donald Karlayl - tarix va siyosiy fanlar professori, AQShning O‘rta Osiyo siyosiy muammolar bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan mutaxassisi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining maslahatchisi. Bu har ikki olim O‘rta Osiyoda, aniqrog‘i Qirg‘izistonning Bishkek, O‘sh, Jalolobod,

²⁴Д.Карлайл,Л.Левитин. Ислон Каримов - янги Ўзбекистон Президенти. - Т.: Ўзбекистон. 1996. Б. 3.

O'zbekistonning Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan qaltis va mudhish voqealarni guvohi bo'lgan va ularni haqiqiy ob'ektiv baholash imkoniga ega bo'lgan.

Ayniqsa, ularning O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning qaltis va murakkab sharoitlarda siyosiy jasorat, mardlik, teran fikrlash, to'g'ri yo'lni tanlash, murakkab muammolarni yechimini topish borasidagi xatti-harakatlariga xolisona baho berishgani alohida ahamiyat kasb etadi. Amerikalik professor kitobining qo'l yozmasini quyidagi so'zlar bilan boshlangan: "G'arb tadqiqotchilari O'rta Osiyo davlatlari orasida avvalo, O'zbekistonga va uning Prezidenti Islom Karimovga e'tibor qilishlari kerak. Chunki, Islom Karimov kamunizmdan keyingi O'rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobidir"²⁵. Rossiya fanlar Akademiyasining akademigi o'sha vaqtlarda ko'zga ko'ringan va yuqori nufuzga ega bo'lgan A.N.Yakovlev bu haqda shunday yozgan edi: "Islom Karimov o'timishni kelajak bilan qo'shish yo'lini tanladi. U yaxshi tushundiki modernizatsiyalashning universal institutlarning samaradorligi bu davlatlarning konkret sharoitiga bog'liq bo'ladi, hamda xalqning merosiylikka asoslangan ijtimoiy madaniy an'analariga ayni bir vaqtda ularni kelajakka qaratilgani bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek xalqi juda boy tarixiy madaniy an'analarga ega, shuningdek rus xalqini marifatli va ilg'or – progressiv ahli o'zbek xalqini o'z birodari sifatida qabul qilgan. Shuning uchun O'zbekistonni Rossiya bilan o'zaro munosabatlari ahamiyatini xorijiy olimlar uchun muhim omilda tahlil qiladi".

"O'zbekistonning xalqaro aloqa tizimida uning Rossiya bilan o'zaro munosabati alohida o'rin tutadi",- deb yozadilar Leonid Levitin va Donald S.Karlayllar. Bu yerda uch asosiy omil mavjud. Birinchidan, O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov Rossiyaning harbiy imkoniyati bu yaqin yillar mobaynida mintaqasidagi barqarorlikning muhim sharti ekanligini yaxshi biladi. Ikkinchidan, O'zbekistonga Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar har doimgiday zarur. Yaqin kelajakda O'zbekiston uchun iqtisodiy hamkor sifatida hech kim Rossiyaning o'rnini bosa olmaydi. Uchinchidan, O'zbekiston va Rossiya xalqlari yuz yillar mobaynida yaqin qo'shnichilikda yashadilar, garchi tobelikda

²⁵ Д.Карлайл,Л.Левитин. Ўша асар. Б. 80.

kechgan hayotni rohat- farogʻatli deb boʻlmasada, bu ikki mamlakat oʻrtasida mavjud boʻlgan madaniy aloqalar hamon saqlanib kelmoqda. Ikki xalq ham bu aloqalarni mustahkamlashdan manfaatdordir. Ayniqsa, bu mamlakatda bir yarim milliondan ziyod ruslar yashayotganligi hisobga olinishi zarur. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Oʻzbekiston Respublikasining mustaqilligini mustahkamlash har qanday tahdid va intilishlarini oʻta ziyraklik bilan sezish va baho berish ishiga alohida eʼtibor qaratar edi. ”Bu zot mamlakatning obroʻ-eʼtiborini butun dunyoning oltini bilan ham oʻlchab koʻrmaydi²⁶,- deb yozadi D.Karlayl. Masalan, Islom Karimov oʻz maʼruzalarining birida chet ellik davlatlarning Oʻzbekistonga nisbatan siyosatini asl mohiyatini quyidagicha fosh qilib tashlagan edi: ”Soʻnggi vaqtlarda ”Ulugʻ ota” sifatida Rossiya oʻrnini egallashni koʻzlayotgan kuchlar paydo boʻldi. Baʼzi bir qoʻshni Osiyo davlatlari bunga zoʻr boʻlib davogarlik qilmoqdalar. Biz hech qanaqa ”Ulugʻ ota” larga muhtoj emasmiz”. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov oʻz qatʼiy pozitsiyasini nazarda tutgan holda, ”Har bir mustaqil davlatning oʻz rivojlanish yoʻli bor, har biri jahon hamjamiyatidan munosib oʻrin egallashini tushunib olish vaqti yetdi”,- deb taʼkidladi.²⁷ Bu fikr Sobiq Ittifoq parchalanib, har bir mamlakatlar oʻzining mustaqil yoʻlini tanlab olayotgan bir sharoitda juda toʻgʻri aytilgan. Ushbu maʼlumotlar magistraturada ilmiy tadqiq etish uchun tanlab olingan mavzuga dahldor emas, ammo unda bildirilgan xulosalardan keltirish foydadan holi ham emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirilgan holda, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi xulosalarini keltirish oʻrinli boʻladi. Ularda SSSR kabi totalitar davlatni parchalanib, yoʻq boʻlib ketishi obʼektiv jarayon maxsuli, tarixiy taraqqiyotning qonuniy mahsuli boʻlganligi gʻoyat teran holda izohlab berilgan. ”Rossiyaning oʻzi putur yetgan va parchalanib borayotgan imperyaning buzib tashlashni boshlab berganligi qonuniy va ramziy holdir”,- deb yozgan edi Islom Abdugʻaniyevich Karimov oʻzining ”Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli asarida.

²⁶ Д.Карлайл,Л.Левитин. Ўша асар. Б. 81.

²⁷ Ислон.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Т.: Ўзбекистон. 1999. Б. 465.

Shuning uchun ham demokratik, iqtisodiy va siyosiy jihatdan sog'lom hamda ravnaq topib borayotgan Rossiya barcha suveren davlatlarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining ham mustaqilligini mustahkamlash uchun nihoyatda zarurdir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining prinsipial jihatdan to'la asoslangan ijtimoiy - siyosiy qarashlarida mustaqil O'zbekistonni Rossiya Federatsiyasi bilan do'stlik va hamkorlik aloqalarining rivojlanishi tarix hukmi va taqozosi ekanligi g'oyat teran tarzda sharhlab bergan edi. "Davlatlar o'rtasida o'zari foydali va teng huquqli munosabatlar o'rnatish Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning asosi va poydevori hisoblanadi va shunday bo'lib qoladi",- deb yozgan edi Islom Karimov²⁸.

Buyuk davlat shovinizmi va agressiv millatchilikni tanqid qilgan holda, biz Sobiq Ittifoq hududidagi davlatlar, avvalo Rossiya bilan sifat jihatdan yangi munosabatlarni rivojlantirish tarafdorimiz. Biz bu mamlakatni real manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, u bilan teng huquqli chinakkam sherikchilik asosida hamkorlik qilishga tayyormiz. Chunki, bizning bu mamlakat va uning buyuk xalqi bilan ko'p asrlik, do'stlik, qardoshlik va o'zaro yordam rishtalari bog'lab turadi. Gapning sirasini aytganda, Rossiyada imperiyacha fikr yuritishdan vos kechishi va O'zbekiston bilan ana shunday hamkorlikka tayyorligini izhor etish buyuk qo'shnimiz uchun g'oyat samarali imkoniyatlarni ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasini Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro do'stona munosabatlari tarix hukmi, mustaqillik sharofati va buyuk kelajak sari taraqqiyot yo'li ekanligi, uning quyidagi so'zlarida g'oyat teran va ehtiros bilan bayon etilgan: "Aminmanki, vaqt va tarix bizning foydamizga, mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlashga xizmat qilmoqda"²⁹. Hayotimizni va tarix g'ildiragini to'xtatib ham, orqaga qaytarib ham bo'lmaganidek, mushtarak

²⁸ Ислон.Каримов. Ўша асар. Б. 467 .

²⁹ Ислон.Каримов. Ўша асар. Б. 461.

muammolarimizga sherik bo‘lib va ularni birgalikda hal qilib yashash chekimizga tushgan.

Darhaqiqat, mana chorak asrdiki, O‘zbekiston o‘z taraqqiyotida yuksak marralarga erishib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarga qo‘shildi. Shuningdek, uni Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalari yanada rivojlanib bormoqda va kelajakda yana ham keng sarhadlarga erishishi muqarrar. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Rossiya Federatsiyasi, rus xalqi bilan o‘zaro do‘stlik, qardoshlik, hamkorlik, tenglik munosabatlarini o‘rnatish va har tomonlama rivojlantirish to‘g‘risidagi fikrlari va amalga oshirgan samarali xatti-harakatlari amalda ro‘yobga chiqdi va ulkan natijalar bermoqda. Mamlakatimizning Rahbari Sh.M.Mirziyoyev ham Rossiya bilan Islom Karimov boshlab bergan yo‘lni ishonch va samarali davom ettirmoqda.

II bob. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

II.1 O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida "Strategik sherikchilik to‘g‘risida shartnoma" va "Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida shartnoma"larning mohiyati va ahamiyati

“O‘zbekiston biz uchun mintaqadagi ustuvor sheriklardan biridir”,- deya bayonot bergan edi Rossiya Federatsiyasining Prezidenti Vladimir Putin o‘zining 2012-yil 4- iyun kuni Toshkentga buyurgan tashrifi chog‘ida. Biz mamlakatning qanday imkoniyatlarga ega ekanligini juda yaxshi bilamiz va munosabatlarimizni uning salohiyatiga hamda xalqlarimiz o‘rtasidagi tarixiy aloqalarining chuqur ildizlariga muvofiq ravishda ko‘ramiz.

“XXI asrning boshlarida xalqaro munosabatlarda , eng avvalo O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ittifoqchilik munosabatlari tamoyillariga muvofiq rivojlanmoqda”, - deya qayd etgan edi O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasining rahbari bilan uchrashuv chog‘ida³⁰.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida hal qilib bo‘lmaydigan muammolar yoki bartaraf etib bo‘lmaydigan to‘siqlar yo‘q, mintaqaviy va xalqaro darajada ko‘p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmlari ishga solingan va ular hayotga tatbiq etilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya doirasida faol ish olib borilmoqda.

Bu aloqa va munosabatlar ikki mamlakat rahbarlari tomonidan 1992-yil 30-may kuni imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar do‘stlik va hamkorlik asoslari to‘g‘risida shartnoma", 2004-yil 16-iyunda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi "Strategik sherikchilik to‘g‘risida shartnoma”, 2005-yil 14-noyabrda imzolangan O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi "Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida shartnoma”lar negizida muntazam rivojlanib bormoqda.

³⁰ www.uza.uz. O'zbekiston - Rossiya davomiy hamkorlikda.

Ittifoqchilik va sheriklik munosabatlari muhim va o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Garchi sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarning kelib chiqish tarixi uzoq tarixiy davrlarga borib taqalsa-da, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi ko'p tomonlama aloqalar hamda munosabatlar XXI asr iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib yangicha miqdor va sifatga ega bo'lib rivojlanmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston va Rossiya o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar o'zaro sheriklik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda muvoffaqiyatli ravishda rivojlanmoqda. Biroz oldinga ketib, shuni ta'kidlash lozimki, bugunga qadar Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston Respublikasining eng yirik tashqi savdo sherigi va ittifoqchisi sifatidagi mavqeini barqaror saqlab kelmoqda. Buning tasdig'i sifatida 2012 – yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasining hajmi 7.6 milliard AQSH dollarini tashkil etganini qayd etish joizdir³¹.

Sarmoyaviy sohadagi o'zaro hamkorlik Rossiya - O'zbekiston munosabatlarida muhim o'rin egallaydi. 2012–yilning o'zida davlatlar investitsiya dasturini hayotga tatbiq etish doirasida O'zbekistonga Rossiyaning 789.4 million AQSH dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kapitallari jalb qilindi. Keyingi yillarda ham kapital mablag'larni kiritish ortib bordi. Birgina "Lukoil" kompaniyasi O'zbekistonda uchta loyihani amalga oshirish maqsadida mohiyat taqsimoti bitimi asosida qiymati 678.5 million AQSH dollariga teng miqdorida sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda. Dunyodagi yirik neft-gaz kompaniyalaridan biri bo'lgan bu kompaniyaning O'zbekiston neft-gaz kompleksiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari yildan-yilga oshib bormoqda. Savdo aylanmasi 2013 – yil yakuniga ko'ra 3 milliard 200 million AQSH dollarini tashkil etdi³².

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 3-dekabr 2013-yilda Oqsaroyda "Lukoil" neft-gaz kompaniyasi ochiq aksionerlik jamiyati Prezidenti Vagit Alekperov bilan rasmiy uchrashuvda ushbu raqam qayd etildi. Shuningdek, "Lukoil" kompaniyasi I.Gupkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz

³¹ www.press-servise.uz.

³² Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2013. 3 декабрь.

universitetining Toshkent shahridagi filialida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish katta e'tibor qaratayotgani ta'kidlandi. Uchrashuvda 2014-2018-yillarda Buxoro, Xiva va boshqa hududlardagi konlarda qator yirik loyihalarni amalga oshirilishi, uzoq muddatli strategik sheriklikka yangi surat bag'ishlashi ta'kidlandi. Mazkur uchrashuvda kompaniyaning yaqin besh yildagi investitsiya dasturi 5 milliard dollarni tashkil etdi³³. Bunday yirik xalqaro e'tirofga molik sheriklik aloqalari O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hamkorlikni tobora tez rivojlanib borayotganligining salmoqli ko'rsatkichlaridan biridir.

Jahon xalqlari va davlatlarining e'tirofiga loyiq mamlakatlararo strategik sheriklik O'zbekiston - Rossiya o'rtasida muntazam mustahkamlanib, yanada keng quloch ichib bordi. Shuning uchun, bu xalqaro – jahon ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlarni eng muhim jihatlarini xronologik tarzda qayd etish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 2014 – yil 10- dekabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi. Ko'ksaroy qarorgohida ikki davlat rahbarlari tor doirada muzokara o'tkazdi. “Ushbu muzokara ham O'zbekiston, ham Rossiya siyosiy muloqotlari va turli darajadagi uchrashuvlarining uzviy davomi, tomonlarning o'zaro hamkorlikni mustahkamlash borasidagi ishlarini izchil va samarali davom ettirish tarafdori ekanligining yorqin namunasi deb bilamiz” - degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Vladimir Putin o'z navbatida O'zbekiston Markaziy Osiyodagi yirik davlat bo'lib, Rossiya Federatsiyasining mintaqadagi asosiy hamkorlaridan biri ekanini ta'kidladi. Sheriklik faqat savdo-iqtisodiy hamkorlik bilan chegaralanib qolmasligi ta'kidlandi. Shu bilan birga O'zbekiston - Rossiya munosabatlarida savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, suhbat chog'ida xalqaro siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, xalqaro muammolar mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalari ham ko'rib chiqildi. Hozirda ikki davlat o'rtasida imzolangan 2013-2017 – yillarga

³³ Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2013. 3 декабрь.

mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi, hamda 2015-2019 – yillarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga oid hukumatlararo bitimga muvofiq iqtisodiy sohadagi aloqalar izchil taraqqiy etmoqda.

Rossiya – O'zbekiston o'rtasidagi tovar ayriboshlash 2016–yil boshlarida 5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Rossiya O'zbekistonning savdo sheriklari orasida ikkinchi o'rinda turadi (Qozog'istondan keyin) O'zbekiston Rossiyaga transport vositalari, paxta tolasi, trikotaj, meva- sabzavotlar, qora rangli metallar, turli xizmatlar yetkazib beradi. Rossiya mamlakatimizga transport vositalari, kimyo va qog'oz sanoati tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradi³⁴.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Rossiya Federatsiyasining Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 2016–yil 25-26–aprel kunlari rasmiy tashrif bilan Moskvada bo'ldi. 25–aprelda bo'lib o'tgan norasmiy uchrashuvda tomonlar O'zbekiston - Rossiya munosabatlari, jahonning turli mamlakatlarida sodir bo'layotgan voqealar xususida atroflicha fikr almashdilar. Bu uchrashuvda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, harbiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama etildi³⁵.

Shuningdek, Strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirishning amalda borishi va bu boradagi navbatdagi vazifalar ko'rib chiqildi. O'zbekiston - Rossiya munosabatlarida savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlanishi o'zining yuksak ijobiy natijalarini bermoqda. Yuqoridagi o'tkazilgan muzokaralar yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida madaniy-gumanitar, tashqi siyosat, oliy ta'lim, jismoniy tarbiya va sport kabi qator sohalarda hamkorlikka erishildi.

Muzokaralar davomida kelishib olingan maqsad va vazifalar har ikki mamlakat hayotida amaliy tasdig'ini topmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasi

³⁴ www.uza.uz

³⁵ Стратегик шерикликнинг янги босқичи //Халқ сўзи. 2016. 27 апрель.

Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017–yil 15 –fevral kuni Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining o‘rinbosari Dmitriy Kazak bilan o‘tkazgan rasmiy uchrashuv chog‘ida ta’kidlab o‘tildi³⁶. Mamlakatlarimiz o‘rtasida hamkorlik "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi" shartnoma talablariga binoan amalga oshirilmoqda deb qayt etildi suhbat chog‘ida.

O‘zaro munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari 2015 -yilda Rossiya tomonidan qabul qilingan 2015-2019-yillarda iqtisodiyotni yanada chuqur islohot etish, tarkibiy o‘zgarishlar qilish, diversifikatsiyalash dasturida qayd etilgan. U sakkizta strategik dasturdan iborat bo‘lib, 2004-2005-yillarda qabul qilingan iqtisodiy rivojlanish hujjatlardagi belgilangan marralarni bevosita davomi bo‘ldi. Iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keyingi yillarda ro‘y bergan jiddiy, ijobiy o‘zgarishlar Shavkat Mirziyoyevni prezidentlik kursida o‘tirishi bilan jadallashib bordi. Iqtisodiy siyosatda O‘zbekistonni sanoat potensialini saqlab qolishda tomonlar olib borayotgan siyosati muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Garchi aviatsiya sanoati jiddiy yo‘qotishlarga uchragan bo‘lsa-da, ammo uning o‘rninni bosuvchi avtomobil sanoati paydo bo‘ldi. O‘zbekiston iqtisodiyotini jiddiy barqarorlashtiruvchi omil tekstil sanoati bo‘lib qoldi. Sh.M.Mirziyoyev chetga paxta sotishni qisqartirib tayyor mahsulot sotishni ko‘paytirdi. Paxta tolasini qayta ishlashning o‘sishi natijasida bu ko‘rsatkich 2016-yilda 40 foiz ga o‘tdi. 2015-yilda 147 ta korxona modernizatsiyalashtirilgan edi.

2020-yilgacha qiymati 918 million AQSH dollari bo‘lgan 77 ta to‘qimachilik loyihalari ishga tushurish rejalashtirilgan. Bu bilan ishlab chiqarish quvvati ikki barobardan ko‘pga oshadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, 2012-yil 4-iyunda imzolangan "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risi"gi Dekloratsiya o‘zaro hamkorlik meyorlari va ko‘lamini yanada kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashda V.V.Putinning 6-sentabr 2016-yilda Samarqandga, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning xotirasiga hurmati yuzasidan qilgan tashrifi o‘ziga xos yuksak

³⁶ www.uzreport.uz

minbardagi hodisa bo'ldi. Kremlning matbuot xizmati xabar qilganidek, Rossiya davlatining rahbari Vladimir Putin va O'zbekiston Respublikasining Bosh Vaziri Shavkat Mirziyoyev marhum Islom Karimovning qabri ustiga gulchambarlar qo'ydi. Sh.M.Mirziyoyev bilan bo'lgan uchrashuvda V.Putin Islom Karimov Rossiya Federatsiyasi bilan O'zbekiston o'rtasida o'zaro aloqalarga juda mustahkam asoslar qurib ketganligini chuqur hurmat va ehtirom bilan ta'kidladi. O'zaro munosabatlar strategik maqsadlarga, strategik sheriklikka qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Vladimir Putinning O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga bag'ishlab aytgan so'zlariga javoban Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytdi. "Islom Abdug'aniyevich hamma vaqt bizni Rossiya Federatsiyasi bilan tashqi siyosatimiz, munosabatlarimiz faqat strategik sheriklikka asoslangan,- deb ta'kidlar edi. Biz ham Vladimir Vladimirovich, uni davom ettiramiz, mustahkamlaymiz. Siz, Islom Karimov bilan uzoq yillar davomida qurgan ko'priknı buzmaymiz, balki, bitiramiz, mustahkamlaymiz"³⁷.

O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi ikki tomonlama strategik munosabatlar Islom Karimovning Prezidentlik yillarida uzluksiz rivojlanib, mustahkamlanib borganligini quyidagi raqamlarda ko'rish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentlari (D.Medvedov,V.Putin) O'zbekistonga besh marta tashrif buyurgan. 1998–yil oktabrda (davlat tashrifi), 2000–yil may oyida, 2003–yil avgustda, 2004–yil iyunda va 2009–yil (ishchi tashrif) da. Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiyada 1994–yil mart oyida, 2005–yil noyabr oyida, davlat tashrifi bilan 2005–yil may oyida va 2006–yil may oyida Moskva - Kreml'da bo'lgan.

2014-yil 10-dekabrda imzolangan "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risida" Dekloratsiya (Biror muhim siyosiy masala yuzasidan rasmiy tarzda e'lon qilingan bayonnoma, bu o'rinda O'zbekiston va Rossiya davlatlari tantanali sur'atda e'lon qilgan o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplar, qonun-qoidalar to'g'risida so'z boradi.) doirasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik barcha

³⁷ Халқ сўзи. 2016. 6 сентябрь.

sohalarda izchil rivojlanmoqda. Parlamentlararo aloqalar, hukumatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kengaytirish va huquqiy jihatdan muvofiqlashtirishda muhim o'rin tutmoqda. Hukumatlararo va idoralararo o'zaro tashriflar muntazamlik kasb etgan. Buning misolini yuqorida o'zaro tashriflarda ko'rib o'tildi.

O'zaro uchrashuvlarda Prezidentlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar, jumladan Afg'oniston muammosi, shuningdek, terrorizm, ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish yuzasidan fikr almashadilar. Respublikamizning Birinchi Prezidenti bu masalalarga doir o'ta muhim va dolzarb fikrlarida Avg'onistonda 35 yildan buyon birodarkushlik urushiga haqqoniy baho berib, uni to'xtatish haqida odilona tavsiyalarni ilgari surdi³⁸.

Ikki mamlakat o'rtasidagi sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov va Vladimir Putinning ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida da'vat etgan muzokaralari orqali namoyon bo'ldi. Prezidentlar Rossiya va O'zbekiston o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy va madaniy-gumanitar va ta'lim sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, tovar ayriboshlashni yanada kuchaytirish va diversifikatsiya qilish, sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish, tropenor va tranzit tashish sohasidagi aloqalarni kengaytirishga doir masalalar muhokama qilindi. Mamlakatlarimizga o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hali to'la foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko'pligi, ularni ishga solish ikki tomon uchun ham ijobiy manfaat keltirishi ta'kidlandi.

Ushbu muzokaralar yakunida 2015-2019 yillarda iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari, moliyaviy talab va majburiyatlarni amalda tartibga solishga oid hukumatlararo bitimlar va boshqa hujjatlar imzolandi³⁹.

³⁸ Ислом Каримов. Ўзбек халқига тинчлик ва омонлик керак. - Т.: Ўзбекистон. 2014.

³⁹ Ўзбекистон-Россия стратегик шерикликни янада мусткамлаш йўлида //Халқ сўзи. 2014. 10 декабрь.

Mazkur muzokaralarning yakunlari to'g'risida har ikki Prezident ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda to'la qoniqish bilan fikr bildirdilar.

"Strategik sheriklik to'g'risida shartnoma"ni tashqi siyosatga bog'liq tomonlarini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovni 2015–yil 15–iyul kuni Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar Vaziri Sergey Lavrov bilan birgalikda muhokama qildi. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar mustahkam sheriklikka asoslangan va davlatlararo aloqalarni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda,- deb sharhladi tomonlar⁴⁰.

Hozirda "Strategik sheriklik to'g'risida shartnoma" va "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma" lar O'zbekiston va Rossiya o'zaro hamkorligida muhim ro'l o'ynamoqda. O'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar shu shartnomalar asosida rivojlanib bormoqda.

⁴⁰ Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2015. 16 июль.

II.2 Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari

"Rossiya va O‘zbekistonning hamkorlik munosabatlarida savdo-iqtisodiy soha yetakchi o‘rinni egallydi",- deb e‘irof etdi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 24-may 2016-yil kuni Oqsaroyda Sergey Lavrov bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda. Uchrashuvda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning bugungi holati va istiqboli to‘g‘risidagi masalalar atroflicha muhokama etildi va tegishli qarorlar qabul qilindi⁴¹.

Tomonlar 2015–2016 yillarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlariga oid bitim doirasida raqobatdosh va xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha yangi investitsiyaviy va sarmoyaviy loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan manfaatdor ekanini ta’kidladilar.

Savdo–iqtisodiy aloqalarning rivojlanish tendensiyasi muntazamlilik kasb etgan. 2013–yilda O‘zbekiston-Rossiya o‘rtasida o‘zaro tovar ayrboshlash hajmi 7 milliard dollardan oshdi. Mustaqillik davomida O‘zbekistonda Rossiyalik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 960 dan ortiq qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda. Ularning 150 dan ortig‘i to‘la ushbu mamlakat sarmoyasi asosida tuzilgan. O‘zbekistonda Rossiyaning “Vilpelkom”, “MTC” kabi transmilliy kompaniyalari samarali ish yuritmoqda. Rossiyaning keyingi o‘n besh yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalarining hajmi 8 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Bu borada Rossiyaning “Lukoil” va “Gazprom” kabi neft-gaz kompaniyalarining O‘zbekistonda olib borayotgan faoliyatini ko‘rsatib o‘tish zarur. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, farmotsevtika sohalarida ham uzoq muddatli va o‘zaro manfaatli loyihalar amalga oshirilmoqda⁴². Ushbu masalalarni atroflicha yoritish uchun, uning huquqiy zamini bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Ittifoqchilik munosabatlari shartnomasining mazmun-mohiyatiga murojat qilmoq zarur.

⁴¹ Oqsaroyda qabul // Xalq s‘uzi. 2016 . 24 may.

⁴² Ўзбекистон - Россия:Стратегик шерикликни янада мустахкамлаш йўлида // Xalq s‘uzi. 2014. 10 декабр.

2005-yil 14-noyabrda imzolangan bu shartnoma ittifoqchilik prinsplarini Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama munosabatlarining yuridik hujjati sifatida xalqaro-huquqiy jihatdan mustahkam tamoyillarni belgilab beradi.

Shartnomaga muvofiq tomonlar o'z zimmasiga milliy, hududiy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash majburiyatini oladi, shuningdek, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, terrorizmni yoyilishiga qarshi turish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, giyohvand vositalarni noqonuniy aylanishiga va boshqa turdagi tahdidlarni bartaraf etish kabilar ham ana shu majburiyatlar doirasiga kiradi.

Magistrlik dissertatsiyasida ko'zda tutilgan rejaga muvofiq O'zbekiston - Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, rivojlanishining asosiy yo'nalishlari atroflicha tahlil qilindi. 2015-2019-yillarga mo'ljallab imzolangan bitim doirasida o'zaro hamkorlik rivojlanib bormoqda. Ushbu shartnomaga muvofiq ravishda tomonlar harbiy va harbiy-texnikaviy, savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalarda hamkorlikni ham yo'lga qo'yib, izchil rivojlantirib bormoqda. "2015-2019-yillarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida bitim" Rossiya Prezidenti V.Putinning 2014-yil 10-dekabrda O'zbekistonga rasmiy tashrifi vaqtida imzolangan edi.

Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining Toshkentda o'tadigan navbatdagi majlisida ishtirok etishi uchun 2016-yil 23-iyunda O'zbekistonga tashrifi buyurdi. Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni o'sha vaqtda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri bo'lib turgan Shavkat Mirziyoyev kutib oldi. Shu kuni O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Ko'ksaroyda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuv o'tkazdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ushbu uchrashuvni O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi o'zaro va ko'p tomonlama hamkorlikning mantiqiy davomi, mamlakatlarimiz Strategik sherikchilikni rivojlantirish yo'lidan borayotganining yaqqol nomoyoni ekanligini alohida ta'kidladi.

O'zbekiston va Rossiya hamkorligi barcha sohalarda izchil rivojlanib bormoqda, 2015-yilning o'zida o'zaro tovar ayriboshlash hajmi 4,4 milliard AQSH dollaridan oshganligi qayd etildi. Keyingi 5 yil davomida Rossiyaning O'zbekiston iqtisodiga investitsiyasi 6 milliard dollardan ortib ketdi. 2015-yilda Rossiya investitsiyasi 2014-2015- yillar ichida 235,5 million dollarni tashkil etdi, bu 2014- yilga nisbatan 40,2 foizga ko'payganini bildiradi⁴³.

Avval aytib o'tilganidek, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy o'rin tutadi. Faktlarga murojat etsak, buning isbotini yaqqol ko'rish mumkin. 2013-2017- yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2015-2019-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston va Rossiya davlatlarini o'zaro iqtisodiy hamkorligi mamlakatlarning tadbirkor-ishbilarmonlarining faoliyatida namoyon bo'ladi. Misol uchun, O'zbekistonda Rossiyalik ishbiarmonlar bilan hamkorlikda yaratilgan 960 dan ortiq qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda Rossiyaning 85 ta firma va kompaniyasi vakolatxonasi ochilgan. O'zaro tovar ayriboshlash hajmi yildan-yilga o'sib borayapti. Joriy yilning (2015) birinchi choragida bu boradagi ko'rsatgich 7.9 % oshgan. Investitsiyaviy hamkorlik o'sib bormoqda. Keyingi yillarda Rossiyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan kapitali 6 miliard dollardan oshgan,yani 2014-yilga nisbatan 40 % ga o'sgan⁴⁴.

Bu borada yoqilg'i-energetika sohasidagi hamkorlik yetakchi o'rinni egallaydi. Rossiyaning "Lukoil" va "Gazprom" neft-gaz kompaniyalari O'zbekistondagi uglevodorod konlarini qidirish va o'zlashtirishda faol ishtirok etmoqda.

Mamlakatimizda Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda quvvati jihatdan dunyoning eng qudratli korxonalar, majmualar ishga tushirilmoqda. 2016-yil 16-aprel kuni Buxoro viloyatida "O'zbekneftgaz" milliy xoldin gaz kompaniyasi bilan "Lukoil" kompaniyasi hamkorligida Qandim gazni qayta ishlash majmuasi qurilishi boshlandi. "O'zbekneftgaz" va "Lukoil" kompaniyasi o'rtasida mahsulot taqsimoti, ya'ni, ishlab chiqarilgan mahsulotni natural tarzda taqsimot qilish

⁴³ Ўзбекистон - Россия доимий ҳамкорлик йўлидайўлида //Халқ сўзи. 2016. 23 июнь.

⁴⁴ www.icc.uz

to'g'risidagi bitim doirasida Xovzek, Shodi, Qo'ng'iro't uchastkalari hamda Qandim konlar guruhida geologik-qidiruv ishlari o'tkazildi. Natijada 18.5 milliard kub metr gaz qazib olindi. Hisor hududi konlarida olib borilgan ishlar natijasida 368.5 ming tonna neft va 2 milliard kub metr tabiiy gaz qazib olindi.⁴⁵

"Lukoil" kompaniyasining moliyaviy salohiyatini O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2013-yil 3-dekabrda Oqsaroyda kompaniya ochiq aksionerlik jamiyati Prezidenti Vegit Alekperovni qabul qilgan uchrashuvda qayd etgan edi. "Lukoil kompaniyasi O'zbekiston yoqilg'i-energetika tarmog'idagi yirik investorlardan biridir",- degan edi Islom Karimov⁴⁶.

Shuni ta'kidlash joizki, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik, yuqorida aytib o'tilganidek, yoqilg'i-energetika kompleksi hamda iqtisodiyotning eng salohiyatli sohalarida o'zaro hamkorlik masalalari O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hukumatlararo iqtisodiy hamkorlik komissiyasi faoliyati doirasida ko'rib chiqiladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi. Hozirgacha komissiyaning 17 ta majlisi bo'lib o'tgan. Ma'lumki komissiyaning 14-majlisi 2012-yilning dekabrda Toshkentda bo'lib o'tgan va undagi muzokaralar chog'ida komissiya faoliyati va kelajakdagi rejalari muhokama etilgan. Ushbu komissiya 2013-2017-yillarga mo'ljallangan "Iqtisodiy hamkorlik to'g'risida hukumatlararo dastur" doirasida ish olib bormoqda.

Hozirda o'zaro hamkorlik "2017-2021-yillarga mo'ljallangan taraqqiyotining besh asosiy tamoyili asosida rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan strategik harakat dasturining besh tamoyili negizida mamlakat, jamiyat, davlat va ijtimoiy muhit taraqqiy etib bormoqda va mustahkam milliy va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishning tayanchi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlarida mamlakatimizni Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini bundan buyon ham har tomonlama rivojlantirish iqtisodiy

⁴⁵ Ўзбекистон - Россия доимий ҳамкорлик йўлидайўлида //Халқ сўзи. 2016. 23 июнь.

⁴⁶ www.uza.uz. Oqsaroyda qabul.

hamkorlikni asosiy yoʻnalishi boʻlib qolishligi taʼkidlanadi. Bu har ikki mamlakat xalqlari uchun oʻzaro manfaatli va foydalidir. 2017-yil 4-5-aprel kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning OAV bilan uchrashuvida aynan shu masala yana bir bor qayd etildi.

2016-yilda Oʻzbekiston va Rossiya Federatsiyasi oʻrtasida tovar aylanishi 2015-yilga nisbatan 5 foizga qisqargan boʻlsa, 2017-yilda Oʻzbekiston Rossiya bilan tovar ayirboshlashni 20 foizga koʻpaytirishni maqsad qilgan. Yani, Oʻzbekiston va Rossiya bilan tovar aylanishini 2017-yilda 5 milliard dollarga yetkazishni rejalashtirmoqda. Bu haqida Oʻzbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri Elyor Gʻaniyev rasmiy bayonot bergan. Shuningdek, "Har ikki tomon bu yoʻlanalishda ish olib bormoqda. Tovar aylanishini koʻpaytirish uchun hamma imkoniyatlar mavjud", - dedi Elyor Gʻaniyev, iqtisodiy hamkorlik boʻyicha Hukumatlararo Komissiyaning Toshkentda boʻlib oʻtgan yigʻilishida. Iqtisodiy hamkorlik boʻyicha Hukumatlararo Komissiya ishida Rossiya tomonidan Rossiya Federatsiyasi hukumatining bosh vaziri Dimitriy Kozak, Oʻzbekiston tomonidan Bosh vazir oʻrinbosari Rustam Azimovlar qatnashdi⁴⁷.

Mamlakatlararo oʻzaro strategik sheriklik va hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishda Rossiyaning "Lukoil" va "Gazprom" neft-gaz kompaniyalarining yetakchilik roli beqiyosdir. Yoqilgʻi-energetika sohasida uzoq muddatli va oʻzaro manfaatli investitsiyaviy loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirishda "Lukoil" va "Gazprom" kompaniyalari juda katta hissa qoʻshmoqda. 2016-yil aprel oyida Moskvada boʻlib oʻtgan oliy darajadagi muzokaralarda bu kompaniyalarning iqtisodiy hamkorlikka qoʻshgan ulkan hissalarini taʼkidlab oʻtildi⁴⁸.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1998-yil, 2004-yil 4 may, 2004-yil 15-16-aprel, 2005-yil 28-29-iyunda Rossiyaga qilgan tashriflari, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning 2000 va 2004-yillarda Oʻzbekistonda boʻlgan

⁴⁷ Халқ сўзи. 2017. 16 февраль.

⁴⁸ Ўзбекистон - Россия: Стратегик шерикликнинг янги босқичи // Халқ сўзи. 2016. 27 апрель..

vaqtida erishilgan bitimlar va imzolangan hujjatlar ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikka huquqiy asosini yaratdi. Bugungi kunda davlatlararo, idoralararo va kompaniyalararo 200 dan ortiq huquqiy maqomga ega bo'lgan hujjatlar imzolangan va 40 dan ortiq boshqa hujjatlar tashkil etadi. Ko'plab shartnomaviy-huquqiy maqomga ega bo'lgan hujjatlar imzolangan va amalda harakat qilmoqda. Uning shartnomaviy huquqiy asosini 163 ta xalqaro, ikki tomonlama shartnomalar va 40 dan ortiq boshqa hujjatlar jumladan, mintaqaviy hamkorlik borasidagi hujjatlar tashkil etadi. Ulardan 115 tasi davlatlararo, hukumatlararo va xalqaro hujjatlar, 48 tasi idoralararo xalqaro hujjatlar, 40 tasi Prezidentlarning qo'shma bayonotlari, hukumatlararo komissiya majlisining protokollari va boshqa xalqaro darajadagi hujjatlaridir⁴⁹.

O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 2005-yilda "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma" imzolanishi tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu shartnomani imzolanishi va kuchga kirishi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Misol uchun, 2003-yilda O'zbekiston - Rossiya o'rtasidagi tovar ayriboshlash hajmi 1 mlrd.149,1 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda bu ko'rsatkich 1 mlrd. 641,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. 2013-yilda esa o'zaro tovar ayriboshlash 7 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi⁵⁰.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida so'z borar ekan Rossiyaning yirik kompaniyalari to'g'risida to'xtalish lozim.

O'zbekistonda Rossiyalik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 960 dan ortiq qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. Ularning 150 dan ortig'i to'la Rossiya sarmoyasi asosida tuzilgan. O'zbekistonda Rossiyaning "Вилпелком", "МТС" kabi transmilliy kompaniyalari muvaffaqiyatli ish yuritmoqda. Rossiyaning keyingi 15 yil ichida O'zbekistonning iqtisodiyotga kiritgan investitsiyalari hajmi 8 milliard dollarni tashkil etdi. Prezident Sh.Mirziyoyev va O'zbekiston hukumati

⁴⁹ Ўша асар. Б. 200.

⁵⁰ С.Мирсоатова, М.Расулов. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати: Тарих ва ҳозирги замон. Фарғона 2015. . Б. 78.

delegatsiyasi 2017-yil 4-5-aprel kunlari Moskvaga rasmiy tashrifi chogʻida Rossiyaning Oʻzbekistonga investitsiyalari 2017-2021-yillar davomida 16 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilganligini qayd etishdi⁵¹.

Iqtisodiy hamkorlikning ulkan salohiyatini ikki mamlakat oʻrtasidagi yoqilgʻi-energetika sohasiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu yoʻnalishdagi hamkorlik oʻzaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratdi.

Yuqorida aytilganidek, Rossiya iqtisodiyotining gigantlari “Gazprom” va “Lukoil” kompaniyalarining Oʻzbekiston iqtisodiyotidagi sarmoyasi 2,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. 2009-yil Rossiya sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 800 dan ortiq (2005 yilda ular soni 520ta edi) qoʻshma korxona faoliyat koʻrsatgan. Ulardan 45 tasi toʻlaligicha Rossiya sarmoyasi bilan tashkil etilgan. Shuningdek, Rossiyada Oʻzbekistonlik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 349 ta korxona faoliyat koʻrsatmoqda⁵². 2016-yil boshlariga kelib Oʻzbekistonda rus kapitali tomonidan investitsiyalashtirilgan 500 ta korxona yaratilgan. Yuqorida qayd etilganidek, 2015-yil oxiriga kelib Rossiya investitsiyasi 6 mlrd dollardan ortib ketdi. Bu mablagʻlarning asosiy qismi kon qazib olish sohasiga toʻgʻri keladi. Aytib oʻtilganidek, bu “Lukoil” va “Gasprom” kompaniyalarining investitsiyalaridir. Masalan, “Lukoil” kompaniyasi Qandim loyihasini amalga oshirmoqda. Bu maqsadlarga hozirgacha 3,6 mlrd AQSH dollarni investitsiyalashtirdi va yaqin kelajakda kiritilgan investitsiyalarni 12 mlrd dollarga yetkazishni koʻzlamoqda. 2017-2021-yillarga moʻljallangan hamkorlik dasturi asosida bu mablagʻ miqdori oshib borishi mumkin.

Oʻzbekistonda keng koʻlamda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat tashqi investorlarni mamlakat iqtisodiyotiga koʻproq jalb etish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Masalan keyingi ikki yil davomida Oʻzbekiston hukumati biznesmen va jismoniy shaxslarga soliq solish yukini yagona ijtimoiy toʻlov doirasida 25 foizdan 15 foizgacha kamaytirdi. Strategik hisobot shakllarining miqdori tadbirkorlar uchun 12,8 foizga qisqartirildi. Markaziy bank yillik

⁵¹ www.uzreport.uz

⁵² Халқ сўзи. 2009. 21 январь.

moliyalashtirishga qo'yiladigan stavkani 10 foizdan 9 foizga tushirdi. Yuqoridagi investorlarga yaratilgan qulay manfaatli sharoitlar xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga oqib kelishiga olib keldi. Bunday yangiliklarning kiritilishi O'zbekistonni 2016-yilda "Biznesni olib borish" reytingida 8-pog'onagacha ko'tarilishiga va 87 o'rinni egallashiga imkon berdi. Bularning barchasi Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni rivojlantirib borish imkonini oshiradi.⁵³

Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respubliasi o'rtasidagi hamkorlik va strategik sheriklikni tobora o'sib borayotganini xarakterlovchi ba'zi ma'lumotlarga e'tibor qaratish lozim. Masalan, Rossiyaning "Силовые машины" davlat kompaniyasi 2012-yilning o'zida Chorvoq GESini modernizatsiyalashga 56,5 mln dollar sarflandi. "Горкий-Урал" mashinasozlik konsernini O'zbekistonda tog'-konchilik sanoati tarmoqlarida umumiy qiymati 180 mln dollar hajmdagi loyihalarni amalga oshirmoqda. ГК "Электрoцит-ТМ", "Самапа" va "Самапа Кабел" kompaniyasi O'zbekistondagi "Uzelektroapparat–elektrotsit" va "Andijonkabel" aksionerlik jamiyati qo'shma korxonalarini yangi texnologiyalar bilan jihozlab, modernizatsiya qildi. Bu ishlar uchun 3,5 mln dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya sarflandi⁵⁴.

Respublikamiz Prezidenti 2017-yil 14-yanvarda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida qisqa satrlarda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish yetarli darajada emasligini tanqid qildi. Nima uchun sotilishi lozim bo'lgan 119 ta aksionerlik jamiyatidan faqat yarmining 15 foizlik ulushi xorijiy investorlarga sotilgan⁵⁵. Bu ko'rsatkich O'zbekiston iqtisodiyotini Rossiya, chet el va yirik kompaniyalar bilan strategik sheriklik va iqtisodiy munosabatlar doirasidagi aloqalari yetarli emasligini ko'rsatadi,- deb xulosa qilish mumkin.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonning strategik sherigi Rossiya Federatsiyasi ekanligini qator nutq va chiqishlarida ta'kidlab o'tganligini yuqorida ko'rib o'tdik.

⁵³ www.uzreport.uz.

⁵⁴ Материали из Википедии. Российско - Узбекистанские отношения // Материал. - М.: 2016. с. 4.

⁵⁵ Ш.М.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. - Т.: Ўзбекистон. 2017. Б. 37.

O‘zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikdan har ikki davlat ham birdek manfaatdordir. Shuning uchun ham o‘zaro savdo aloqalari yil sayin o‘sib, rivojlanib bormoqda.

III bob. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida ilmiy va madaniy-ma’rifiy hamkorlik

III.1 O‘zbekiston va Rossiya fanlar Akademiyalari va institutlari o‘rtasida ilmiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikning rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishning tarkibiy qismini mamlakatlar o‘rtasida 1993-yil 19-martda imzolangan “Madaniyat, fan va texnika ta’lim sog‘liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohalardagi hamkorlik to‘g‘risida” gi hukumatlararo bitim hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Madaniyat vazirligi o‘rtasida 1995-yil 27-iyulda imzolangan “Madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim”lar alohida ahamiyatga ega.

Ayniqsa, so‘ngi yillarda ta’lim, sogliqni saqlash, ilm-fan va texnika sohalaridagi hamkorlik mazmunan boyib, rivojlanib bormoqda. 2008- yil 2-sentabrda Toshkentda Rossiya Federatsiyasi hukumati va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasida, RF Bosh vaziri Vladimir Putin va O‘zbekiston Bosh vaziri Shavkat Mirziyoyevlar tomonidan imzolangan “Iqtisodiy hamkorlikni yana ham rivojlantirish to‘g‘risida”gi hujjat mamlakatlar o‘rtasidagi ilmiy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi⁵⁶.

Buning yorqin timsoli bo‘lib O‘zbekistonda G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filiallarini ochilishi va bir necha yillardan beri faoliyat ko‘rsatib kelayotganini aytish mumkin.

2007-yilning 13-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Toshkentda I. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori e’lon qilindi.

⁵⁶ Россия ва Ўзбекистон Бош вазирлари иқтисодий ҳамкорликни муҳокама етдилар // Халқ сўзи. 2008. 3 сентябрь.

“Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ulkan ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan o‘zaro hamkorlik munosabatlari bundan keyin ham chuqurlashgan holda sermahsul aloqalarning yangidan-yangi sohalarini qamrab olishga shubha yo‘q”- degan edi V.V.Putin. Darhaqiqat keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi ko‘p tomonlama ilmiy, ilmiy-texnikaviy aloqalar rivojlanib borayotgani buning yorqin dalilidir.

Masala ilmiy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni o‘rnatilishi va rivojlanishi to‘g‘risida borar ekan G.V.Plexanov nomidagi Rossiya universiteti haqida kengroq to‘xtalish maqsadga muvofiq. Bu universitet iqtisodiyot va tijorat ta‘limining eng yirik markazlaridan biri bo‘lib, o‘quv, ilmiy va ishlab chiqarish birlashmasidir. Rossiya Federatsiyasining eng taniqli brendlari sirasiga kiruvchi va bir asrdan ziyodroq tarixga ega bo‘lgan ushbu oliy o‘quv yurti chet ellarda ham shuhrat qozongan. G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod universiteti iqtisodiyot yo‘nalishidagi ta‘lim muassasalarining yetakchi uchligini tashkil etib, mamlakatning eng yaxshi o‘quv yurtlarining o‘ntaligiga kiradi.

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali respublikaning oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida munosib o‘rin egallagan. Bu universitetning filiali o‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq; ta‘lim va ilm-fan sohasini nazorat qilish federal xizmati litsenziyasi va davlat akkreditatsiyasi guvohnomalariga muvofiq ish yuritib O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim xizmatlari bozorida mustahkam o‘rin egalladi.

"Bizning asosiy maqsadimiz - chuqur bilim, ilmiy va ijodiy salohiyatga ega yuksak madaniyatli, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir",- deb yozilgan universitet pasportida. Toshkentdagi filialda kadrlarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat o‘qish kamida to‘rt yil davom etadigan, mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy va amaliy ma‘lumot beradigan tayanch oliy ta‘limdir. Bakalavr dasturini tugatgach bitiruvchilar davlat attestatsiyasi natijalariga ko‘ra

kasbi bo'yicha bakalavr darajasi va kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi davlat diplomi beriladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavrlilik negizida kamida ikki yil davom etadigan asosiy va amaliy bilimlarni beradigan oliy ta'limdir. Malakaviy davlat attestatsiyasi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi va "Magistr" darajasi beriladi. Magistrarga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beruvchi davlat diplomi taqdim etiladi. Undagi tahsil yakuni kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga etkaziladi. "Shu bilan birga biz o'z ehtiyojlarimizdan va ichki sharoitlarimizdan kelib chiqib, uzluksiz ta'limning rasmiy tizimidan yakunlovchi bir bosqichni ham joriy etishimiz kerak",- deb ta'kidlagan edi Islom Karimov. Bu bosqich ikki darajaga bo'linadi, ya'ni, asperantura va doktoranturadan iborat bo'ladi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash zarurki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillarida ilm-fan sohasida akademik tizimni har tomonlama rivojlantirish zamon talabi ekanligini ta'kidlagan edi. Bu borada O'zbekistonda barcha tarixiy va zamonaviy imkoniyatlar mavjud ekanligini ta'kidlab, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi umumiy yig'ilishi, 1994-yil 7-iyulda so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Bizda kelajakka katta umid va ishonch bor. O'zbekiston kelajakda buyuk davlat bo'ladi degan so'zlar dabdali shior emas, balki, teran o'ylab, hisob-kitoblar negizidan chiqarilgan asosiy xulosadir"⁵⁷.

Birinchidan, bizda buyuk tarix va buyuk ma'naviy meros bor. Xalqimiz va milliy davlatchiligimizning buyuk tarixiy ildizlari g'oyat chuqur qurilayotgan, muhtasham imoratimizning poydevori juda baquvvat bo'lgan, buyuk madaniyatga ega bo'lgan millatning istiqboliga umid bilan qarashi mutlaqo tabiiy holatdir.

Ikkinchidan, mamlakatimizning behisob yer osti va yer usti boyliklari, tabiat, iqlimi qulay ekani ham shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

⁵⁷ Islom Karimov. Баркамол авлод орзуси. - Т.: Шарқ. 1999. Б. 24.

Uchinchidan, mehnatkash, g'ayratli, bunyodkor xalqimiz bor. Bu uch qudratli imkoniyat vatanimizning kelajak taraqqiyotini ta'minlaydi, bunga ishonchimiz komil, albatta.

Lekin, yana bir buyuk xazinamiz borki, bu mamlakatimizning intellektual salohiyatining boyligidir. Bu boylik bizga o'tmish ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan. Biz esa buyuk ajdodlarimizning vorislarimiz.

"O'zbekistonning ta'lim sohasi kelajagi to'g'risida o'ylaganimizda, uni Fanlar Akademiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Akademiya esa millat faxri, mamlakat obro'-e'tiborining ramziga aylanishi kerak",- degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. "Tabiiyki, biz bugunimizni fan-texnika taraqqiyotisiz tasavvur eta olmaymiz. Jahon sivilizatsiyasiga dahldor bo'lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib mamlakat taraqqiyotini ta'minlash qiyin. Shuning uchun ham bugun siz bilan akademiya va uning faoliyatiga doir masalalar haqida ochiq-oydin gaplashib olishimiz zarur", - deb aytgan edi Islom Karimov o'z nutqida⁵⁸. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning yuqoridagi fikrlaridan Fanlar Akademiyasining o'zaro ilmiy va madaniy aloqalardagi o'rni va ahamiyati juda yuqori ekanligini bilishimiz mumkin.

"Mustaqillik yo'liga dadil va shaxdam kirgan va rivojlanib borayotgan O'zbekistonning oldida turgan birinchi vazifalar qatorida ilm-fan, fan-texnika salohiyatini rivojlantirish ekanligini ta'kidlab. Buning uchun tarixiy manbalar ham, ilmiy meros ham mavjud, intellektual salohiyat ham yetarli",- deydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Axir, O'zbekistonda dunyo kashfiyotlariga munosib hissa qo'shgan olimlar kam emas. Olimlarimiz Vatan xizmatiga doim tayyor. Ularning potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ilmiy maktablarni yana tiklash va moddiy-texnikaviy asoslarini mustahkamlash zarur. Bu masalada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi: "To'g'ri Rossiya, Ukraina va Belorusda yirik ilmiy maktablar

⁵⁸ Ислом Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. - Т.: Ўзбекистон. 1995. Б. 48-52.

mavjud. Lekin O'zbekiston ilmiy salohiyatining ayrim sohalarda ulardan qolishadigan joyi yo'q deb o'ylayman"⁵⁹.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning bundan yigirma uch yil avval bildirgan g'oyat shijoatli va umidli fikrlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, uning qoshidagi ilmiy tekshirish institutlari, oliy o'quv yurtlari tajribasi va faoliyatida ro'yobga chiqmoqda. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida tadqiq va tahlil etilayotgan mavzuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ilm-fan, ilmiy-texnikani rivojlantirishda qardosh respublikalar, asosan Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik qilish o'zaro munosabatlarini muntazam rivojlantirib borish zarurligi to'g'risidagi ko'rsatma va yo'llarini hayotga tatbig'ini ko'rishimiz mumkin. Ayni shu ma'noda M.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti, Plexanov nomidagi Iqtisodiyot Akademiyasi, I.Gubkin nomidagi Rossiya Davlat neft va gaz Universiteti filiallarining Toshkentda faoliyat yuritayotganini qayd etish zarur.

V.G.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Universitetining Toshkent shahridagi filialida o'quv jarayoni Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiq olib boriladi. Filialda uchta fakultet faoliyat yuritadi. Biznes fakultet, magistrlik dasturlari fakulteti va umumiy iqtisodiyot fakulteti. Ularda "Iqtisodiyot" yo'nalishida quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha bakalavrlar tayyorlanadi: Moliya va kredit, mehnat iqtisodiyoti.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Toshkent shahridagi filial ta'lim va ilm-fan sohasidagi nazorat qilish federal xizmatining akkreditatsiya kollegiyasi tomonidan davlat attestatsiyasidan o'tgan deb tan olindi. (Hozirgacha ma'lum davlat standartlari 2009-yil 25-maydagi 1975- raqamli guvohnoma asosida ish olib boriladi, guvohnoma 2014-yilning 25-mayiga qadar amal qildi)

Yuqorida aytib o'tilganidek, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Davlat Iqtisodiyot Universiteti quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

- yuqori mamlakali mutaxassislar – oliy ma'lumotli iqtisodiyotchilarni tayyorlash, amaldagi mutaxassislarni malakasini oshirish;

⁵⁹ Ислон Каримов. Ўша асар. Б. 49.

- xodimlarni boshqarish, mehnat iqtisodiyoti, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va boshqa sohalaridagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;
- o'quv dasturlarini takomillashtirish, uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish, o'quv qo'llanmalar va darsliklarni yaratish bo'yicha o'quv-uslubiy ishlarni olib borish;
- zamonaviy iqtisodiy rivojlanish muammolari bo'yicha ilmiy-amaliy va nazariy anjumanlar, seminarlar va majlislarni tashkil etish va o'tkazish;

Magistrlarni tayyorlash jarayoni ham "Iqtisodiyot" yo'nalishida quyidagi magistrlik dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi:

- firmalar va soha bozorlari iqtisodiyoti;
- moliyaviy iqtisodiyot(investitsiya):

Rossiya Iqtisodiyot universiteti filialidagi ta'lim sifati darajasi yuqori bo'lgan oliy iqtisodiy ma'lumotni olishni nazarda tutadi. Bunga esa quyidagilar hisobiga erishiladi: Zamonaviy ta'lim shakllari va uslublarini qo'llash; soha fanlari bo'yicha chuqur tayanch bilimlarni berish; chet tili ma'lumoti haqidagi sertifikatga ega bo'lishni nazarda tutuvchi chuqurlashtirilgan xorijiy til o'rgatish dasturlarini qo'llash: kvalifikatsion guvohnoma beriladigan axborot texnologiyalarini qo'shimcha ravishda o'rgatish.

G.I.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasining bugungi hayoti va faoliyati to'g'risida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- birinchi navbatda Toshkent filialining kadrlar tarkibi va uning oltin fondi tashkil etadi. Bu oliy o'quv yurtida mehnat qiladigan o'qituvchilarning 74% ni fan doktorlari va nomzodlari tashkil etadi.

- ikkinchidan, universitetning o'quv bazasi yuqori darajada ta'minlangan. Universitetda samarali ta'lim jarayonini yuritish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Kompyuter texnologiyalari va multimediya jihozlari bilan ta'minlangan, 25 mingdan ziyod kitob fondi mavjud bo'lgan elektron kutubxonaga ega axborot-resurs markazi talabalar va o'qituvchilar ixtiyoriga topshirilgan. Filialda shaxsning ijodiy o'z-o'zini namoyon etishi uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan.

- uchinchidan, universitetni Toshkent shahridagi filialining xalqaro miqyosdagi faoliyati uning mavqeyini yanada oshirishga yordam bermoqda. Uning xalqaro aloqalari bosh oliy o'quv yurtining bevosita ishtirokida Yevropa, Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyoning turli xorijiy idoralari va o'quv markazlari bilan hamkorlik shaklida samarali ish olib bormoqda. Filial tashkil etilganidan buyon 1572 bakalavr va 396 magistr tayyorlandi. Ularning 90 foizidan ortig'i ish bilan ta'minlangan⁶⁰.

Yuqoridagi raqamlar va fikrlardan ayon bo'ladiki, O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro hukumatlararo ilmiy va madaniy hamkorligi, shu bilan bir qatorda O'zbekiston va Rossiya Fanlar Akademiyalari hamda ilmiy muassasalari o'rtasidagi ilmiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik samarali rivojlanib, tobora mustahkamlanib bormoqda.

Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi ilmiy va madaniy-ma'rifiy hamkorlik o'zaro tillarni o'rganish borasidagi aloqalarning yuksalishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Avval boshida aytilganidek, rus tili mana ikki asrdirki, O'rta Osiyo mintaqasida, jumladan, O'zbekistonda o'rganilib kelinadi. Ma'rifatparvar demokrat allomalar, olimlardan tortib, oddiy endigina shakllanib kelayotgan o'zbek ishchisi ham rus tilini zo'r qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganishgan. Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasidagi bu an'anaviy yo'nalish davlatlarning mustaqillikka erishganidan keyin yana ham kengayib yangicha mazmun kasb etib bormoqda.

Respublikamizda 1994-yildan boshlab rus madaniyati markazi faoliyat ko'rsatadi. U 19 ta viloyat va shahar jamoatchilik madaniy-ma'rifiy uyushmalarini o'z atrofida birlashtirgan. Shuningdek, O'zbekistonda rus tilini o'rganish va ta'lim olish, mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Mamlakatimizda 800 dan ortiq rus va o'zbek tillarida ta'lim berayotgan maktablar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, yurtimizning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida rus tilida tahsil olayotgan fakultet guruhlar mavjud⁶¹.

⁶⁰ www.rea.uz. Universitet bugun.

⁶¹ Тошкентда Россия фани ва маданияти маркази // Халқ сўзи. 2015. 19 октябрь.

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi ilmiy va madaniy hamkorlik 2001-yil martidan yanada rivojlanish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Ya’ni, shu kundan Toshkentda Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Rossiya xalqaro va madaniy hamkorlik markazining vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatib kelyapti. Ilmiy-madaniy aloqalarni rivojlanishida 2002-yil 26-noyabrda Moskvada buyuk mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni, bobomiz Mir Alisher Navoiy haykalining ochilishi muhim tarixiy voqea bo‘lgan edi. Shuningdek, o‘sha yili Moskva va Sankt-Peterburgda “Yalla” guruhining yubiley konserti va “Ilhom” teatrining gastrol safarlari amalga oshirildi. Keyingi yillarda ham madaniy-ijodiy uchrashuvlar va aloqalar muntazam davom etib kelmoqda. Hozirda yurtimizda 800dan ortiq maktabda ta’lim ham o‘zbek, ham rus tilida olib boriladi. 160 ga yaqin maktabda ta’lim faqat rus tilida olib boriladi.

Mamlakatlararo ilmiy va madaniy-ma’rifiy hamkorlikning taraqqiy etishida respublikamiz kutubxonalarining yangi adabiyotlar bilan muntazam boyib borishi muhim ahamiyatga ega. Birgina misol 2003-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, faqatgina oliy ta’lim muassasalarida jami 19 mln. 165 ming 954 nusxa kitob hisobga olingan bo‘lsa, ulardan 11 mln 870 ming 322 tasi rus tilida chop etilgan bo‘lsa, 2003-2004 o‘quv yilida 66 turdagi o‘quv darsliklari faqat rus tilida chop etilgan.

Rus tilidagi matbuot ommaviy axborot vositalari bilan aholi o‘rtasidagi aloqani ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Har yili umumiy soni 1-1,2 mlnga teng 40-45 turdagi o‘quv darsliklari va adabiyotlari nashr etilmoqda. Hozirda rus tilida chop etilayotgan gazeta va jurnallar soni o‘zbek tilida nashr etilayotganlar bilan teng. O‘zbekistonda chop etilayotgan gazetalarning 90 ga yaqin va jurnallarning 60 ga yaqin rus tilida o‘quvchilarga yetkazilmoqda⁶².

Tadqiqotchi olimlar, siyosatchi arboblari, ma’rifatparvar mutafakkirlar qayta-qayta takrorlaganlaridek, til insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish va aloqa qilishning qudratli vositasi. Shu nuqtai nazardan olganda ilm-fan va texnika rivojida tilning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy aloqalar yildan-

⁶² www.uza.uz.

yilga rivojlanib bormoqda. Bunda rus tilining mamlakatlar ilm va texnika salohiyatini yuzaga chiqarishdagi hal qiluvchi roli shubhasiz ulkandir. Bu belgilovchi omil ko'plab sohalarda namoyon bo'ladi, ayniqsa, ilmiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda yaqqol ko'rinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma" hamda "Strategik hamkorlik to'g'risida shartnoma"larda ilmiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish prinsplari belgilab berilgan va shular asosida mamlakatlarda ilm-fan va ilmiy-texnikaviy aloqalar uzviy bog'liqlikda rivojlanmoqda. Yana bir bor ta'kidlash lozimki, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy va mustahkam ijtimoiy, madaniy-gumanitar hamda tarixiy bog'lanishlar an'anaviy ikki tomonlama hamkorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu haqiqat dunyoning iqtisodiy va ilm-fan sohalarida yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlarda o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi zamon sotsiolog-iqtisodiyotchilari ilm-texnika taraqqiyotida zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiy o'sish siyosatini ilgari suradi. Ular mashhur iqtisodchi olim Y.Shumpertning fan - iqtisodiy siyosatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, innovatsiyalar esa yangi bozorlarning shakllanishi, ishlab chiqarish menejmentini takomillashtirishning eng samarali omiliga doir izlanishiga tayanib, moliyaviy sarmoyalarni birinchi galda biotexnologiya, elektron va axborot texnologiyalari, yangi materiallar ishlab chiqarish kabi istiqbolli sohalarga yo'naltirishni taklif etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yurtimizda ilm-fan tayanchi va o'chog'i bo'lgan Akademiya, akademik institutlarni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari va farmonlari ana shu davr ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirishga qaratilgani bilan dolzarb va muhim ahamiyatga ega. "Ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmog'i taraqqiyotida katta o'rin tutadi, davlat esa bu yo'lda avvalo olimlarga suyanadi",- dedi yangi yil arafasida, 2016-yil 30-dekabr kuni Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan bo'lgan uchrashuvda. Ularni yangi yil bayrami bilan samimiy tabriklab fan va ilm- texnika sohalarida turgan dolzarb vazifalar haqida to'xtaldi.

Ushbu tadbir o'zining mohiyati va ko'lami bilan ilm-fan taraqqiyotini oshirishda tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu uchrashuvda olimlar bilan bir qatorda respublika hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi a'zolari, yetakchi oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirok etdi. Bu anjumanning yakuni va xulosalari Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademiklari faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish to'g'risida" gi Farmonida o'z ifodasini topdi. Farmonda ilm-fan iqtisodiyotining barcha tarmog'i taraqqiyotida katta o'rin tutadi deyildi. Davlat esa bu yo'lda avvalo olimlarga suyanadi. Bugun ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya har qachongidan ko'ra ham dolzarb ahamiyatga ega⁶³.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilm-fan, ta'lim tizimi, fan, madaniyat, san'at, maorif kabi sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida yuqoridagi ustuvor yo'nalishlar "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"da va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ilmiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik ana shu konstitutsion tamoyillar asosida o'rnatilgan va tomonlar ilm-fan, ta'lim, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida ijobiy natijalarga erishmoqda.

Zamonaviy ilm-fan, dunyo ilm-texnika taraqqiyoti talablariga javob beruvchi sohalarni rivojlantirish masalalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, Prezidentimizning farmonlari bilan 2017-yil 18-fevraldan O'zbekistonda yadro-fizikasi instituti qayta tiklandi.

Shuni eslatib o'tish darkorki, 2008-yil 3-sentabrda ikki mamlakat bosh vazirlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda 2008-2010 yillarga mo'ljallangan o'zaro hamkorlik dasturi ishlab chiqildi. O'sha vaqtdagi Rossiya Federatsiyasining Bosh Vaziri V.Putin va O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri Sh.Mirziyoevlar o'zaro suhbatda Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi

⁶³ Илм-фан тараққиётининг янги босқичи // Халқ сўзи. 2017. 10 январь.

o‘zaro aloqalarda faqat energetika, sanoat va transport sohalaridagi hamkorliknigina emas, balki ilmiy-texnik hamkorlikni tiklash yuzasidan fikrlar almashgan edilar. Bu uchrashuv ilmiy-texnikaviy hamkorlik rivoji uchun yana bir turtki bo‘ldi.

III.2 O`zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o`rtasidagi madaniy-ma`rifiy hamkorlik

O`zbek xalqining rus xalqi bilan madaniy-ma`rifiy hamkorligi uzoq tarixiy ildizlarga ega. O`rta Osiyoni Rossiya samoderjoviyasi tomonidan bosib olinishi, tarixchi, siyosatchi, davlat arboblari (N.A.Muhitddinov, Sh.R.Rashidov, I.A.Karimov) ning ochiq va haqiqiy ravishda qayd etganlaridek, o`z oqibatlariga ko`ra progressiv ahamiyatga ega bo`lgan, o`z davriga nisbatan qoloq feodal zulm ostida ezilgan o`zbek xalqi ilg`or rus madaniyati, ilm-fani bilan bog`landi. O`zbek xalqi Pushkin, Gersan, Ogaryev, Turgenev, Dobrolyubov, Cherpishevskiy kabi ma`rifatparvar mutafakkirlarning chor Rossiyasi hukumronligiga qarshi kurash, ma`naviy-madaniy tubanlikka nisbatan nafrat ruhini singdirish kabi insonparvarlik g`oyalarini o`zlashtirdi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasining ushbu bobida chuqur ijtimoiy-falsafiy va ma`naviy-ma`rifiy ildizlarga ega bo`lgan O`zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o`rtasidagi mustaqillik yillaridagi madaniy-ma`rifiy hamkorlik jarayoni yoritiladi va ilmiy tahlil etiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni yurtimizning yetakchi olim va fan nomoyondalari bilan bo`lgan uchrashuv chog`ida madaniy-ma`rifiy, ilm-fan, ta`lim-tarbiya sohasidagi ustuvor vazifalarni atroflicha tahlil qilib ko`rsatib berdi⁶⁴.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o`zining qator asarlarida o`zbek milliy madaniyati va ma`rifatining tarixiy ildizlari va istiqboli to`g`risida yozganda, bu jarayonning tarixiyliigi, merosiyliigi va sharq-g`arb falsafiy tafakkuri bilan uzviy bog`liqligini ta`kidlab o`tadi: “Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma`naviyat, adolatparvarlik, mehnatsevarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta`limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg`un holda shakllanishi lozim⁶⁵,- deb yozgan edi Islom Karimov. O`ylaymanki, biz barpo etayotgan

⁶⁴ Илм-фан тараққиётининг янги босқичи // Халқ сўзи. 2017. 10 январь.

⁶⁵ Ислон Каримов. Юксак маънавият енгилмас куч. - Т.: Маънавият. 2008. Б.78.

jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy asoslarini belgilashda mana shu g'oyalarga suyansak xato qilmagan bo'lamiz. Shuningdek, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, avloddan-avlodga yetkazishda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz shu xazinani ko'zqorachig'imizdek asrash va yanada boyitishdir. Yuqoridagi fikrlarda xalqimizning bitmas-tuganmas xazinasi, milliy, madaniy-ma'rifiy boyligi to'g'risida boradi, shu bilan birga boshqa xalqlar, elat va millatlarning ma'naviy – falsafiy tarixi va merosiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lish zarur ekanligi ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan fikr yuritganda, bugun o'zbek xalqini Rossiya bilan birinchi navbatda rus madaniyatining ulkan yutuqlariga o'z milliy madaniyatiga nisbatan bo'lganidek munosabatda bo'lish zaruriy ehtiyoj hisoblanadi. Ma'naviyat, aql-zakovat, ilm-fanning qudratiga tayanish uzoq o'tmishimiz, kechagi kunimiz jahon, g'arb va sharq mamlakatlari tajribasi natijalarini tahlil etgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov barcha oliyjanob, ezgu maqsadlar, niyatlarimizga yetishishning bosh kafolati yurtimizni iqtisodiy boyligini yuksaltirishda ekanligini ta'kidlab, "Bu ezgu maqsadlarga qo'shni va qardosh mamlakatlar bilan strategik sheriklikni, iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirish vositasida erishish mumkin",- deb ta'kidladi.

Bugun har tomonlama kengayib, rivojlanib borayotgan O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro madaniy-ma'rifiy hamkorligi yuqorida qayd etilgan tarixiy ildizlar negizida taraqqiy etib bormoqda. O'zbekiston Rossiya o'rtasida madaniyat, san'at, ta'lim, maorif, sog'liqni saqlash, turizm, ekologiya va umuman hayotning barcha sohalarida yaqin hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hukumatlari o'rtasidagi ilmiy, madaniy-ma'rifiy hamkorlik 1993-yil 19-martda imzolangan "Madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot sport va turizm sohalaridagi hamkorlik to'g'risida" va 1995-yil 27-iyulda imzolangan "Oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida"gi bitimlari asosida rivojlanib

bormoqda⁶⁶. Shuningdek, 1997-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Moskvada, rassomlar markaziy uyida har yili o'tkaziladigan ko'rgazmaning doimiy faol ishtirokchisidir⁶⁷.

G.V.Plexonov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot akademiyasining Toshkent shahridagi filiali 1995-yilda ochildi va hozirgi vaqtda muvafaqqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida madaniy-ma'rifiy hamkorlikni rivojlantirishda 2005-yil 19-oktyabrda Toshkentda Rossiya fani va madaniyati markazining ochilishi muhim tarixiy voqea bo'ldi. O'zbekiston va Rossiyaning gumanitar sohadagi hamkorligini yanada kengaytirishga mo'ljallangan Rossiya fani va madaniyati markazining vazifasi shunga qaratilgan.

Markaz ikki mamlakat olimlari, adiblari, rassomlari, san'at ahli o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalarni rivojlantirish hamda birgalikda dastur va loyihalarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan. Markazda kutubxona, kinozal, filolog-o'qituvchilar uchun o'quv-uslubiy xonalar mavjud, malakali metodist maslahatchilar xizmat ko'rsatadi.

Markazning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri o'rinbosari S.Inomova nutq so'zlab, xususan shunday dedi: "O'zbekiston va Rossiya o'rtasida ko'p sohalarda mustahkam hamkorlik munosabatlari o'rnatilgan"⁶⁸.

Ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalar muntazam rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 2005-yilning oktabr oyi boshida Sankt-Peterburgda o'tgan sammit doirasidagi uchrashuv mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga yangicha faollik baxsh etdi. Toshkentda Rossiya fani va madaniyati markazining ochilishi davlatlararo integratsiya jarayonlari kuchayishining yorqin misolidir. Markazning faoliyati mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi deb ta'kidladi tomonlar.

⁶⁶ Маърифат. 2005. 19 ноябрь.

⁶⁷ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. - Т.: Академия. 2005. Б. 201.

⁶⁸ Тошкентда россия фани ва маданияти маркази //Халқ сўзи. 2005. 19 октябрь.

Ushbu markazning ochilishida ishtirok etgan ijodkor ziyolilar, respublikada joylashgan milliy madaniyat markazlari va boshqa jamiyat tashkilotlari vakillari fan va madaniyat sohasidagi aloqalarning kengayishi xalqlarimizning yanada yaqinlashishiga yordam berishini ta’kidladilar. Bu markaz ikki mamlakat jamoatchiligini O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi fan va madaniyat sohalaridagi yutuqlari bilan kengroq tanishishga xizmat qiladigan yana bir nufuzli makonga aylandi.

Rossiya fani va madaniyati markazining ochilish marosimida Rossiya Federatsiyasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi F.Muxametshin ishtirok etdi. Ushbu sohalaridagi o‘zaro munosabatlarni rejali amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport vazirligi bilan Rossiya Madaniyat vazirligi o‘rtasida imzolangan “Madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim” muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda Rus madaniyati markazi 19 ta viloyat va shahar jamoatchilik madaniy-ma’rifiy birlashmalarni o‘z atrofida birlashtirgan. Farg‘ona shahri va viloyatida tashkil topgan Rus madaniyati markazi yirik milliy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib, diniy konferensiyalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda⁶⁹.

Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy hamkorlikning tizimli rivojlanishida sayyohlik sohasidagi o‘zaro hamkorlik ham muhim o‘ringa ega. Bu sohadagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish maqsadida 2009-yil oktabr oyida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi bilan "Rossiya hamkorlik korporatsiyasi" o‘rtasida agentlik bitimi imzolangan. “O‘zbekturizm” milliy sayyohlik kompaniyasi O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha faoliyat olib bormoqda. Shuni qayd etish lozimki, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi barcha siyosiy, iqtisodiy hamkorlik madaniy, ma’naviy sohalaridagi aloqalarni yanada rivojlantirishni ham nazarda tutib kelgan, chunki ular iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish, jamiyat

⁶⁹ Ўзбекистон - Россия: Тинчлик ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик .12.04.2013 йил. М.Ф.А Уз/уз/С

hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashga ham yo'naltirilgan.

2001-yil mart oyidan boshlab Toshkent shahrida Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Rossiya xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik markazining vakolatxonasi faoliyat olib boradi. Undan bir necha yil oldin, 1994-yilda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Rus madaniy markazi tashkil topgan edi. Markazni tuzishda Rossiya milliy diasporiga muvofiq ravishda turli millat vakillari ishtirok etdi. Rus madaniyatiga bo'lgan mehr-muhabbat, rus xalqi an'analari va urf-odatlarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq ilm-fan, ta'lim va san'at namoyondalarini birlashtirgan.

1999-yildan buyon rus va o'zbek xalqining sevimli shoirasi bo'lgan Anna Axmatovaning "Мангалочий дворник" muzeyi ish olib boradi. Muzey huzurida shoir va san'atkor Vladimir Visoikiy nomidagi she'riyat va musiqa klubi, "Данко" shoirlar klubi, "Радуниса" Yesenenik jamiyati, "Под кришом пегаса" adabiy uyushmasi, "В мире прекроново" kitobsevarlar kulubi, "Серебрянный век" adabiy mehmonxonasi ishlab turibdi⁷⁰. 2002-yil 26-noyabrda Moskva shahrida buyuk mutafakkir, g'azal mulkingning sultoni, avliyolarning avliyosi (Islom Karimov so'zi) Mir Alisher Navoiy haykalining ochilish muhim tarixiy voqea bo'ldi. Shuningdek, o'sha yili Moskva va Sankt-Peterburgda "Yalla" guruhining yubiley konserti va "Ilhom" teatirining gastrol safarlari amalga oshirildi⁷¹.

O'zaro madaniy-ma'rifiy hamkorlik oliy o'quv yurtlari, maktablar, litseylar, kasb-hunar kollejlari keng amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda 807 ta rus va o'zbek tillarida ta'lim beruvchi maktablar mavjud bo'lib, ularning 100 tasida o'qitish faqat rus tilida olib boriladi. Mazkur maktablarda 355 ming nafardan ortiq o'quvchilar tahsil oladi. Shu bilan birga o'quvchilarning umumiy miqdori 57 ming nafardan ortiq bo'lgan 286 ta o'rta maxsus ta'lim muassasalari (76 ta akademik litsey va 210 ta kasb-hunar kolleji) faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 2 ming nafardan ziyod o'quvchilarni o'z ichiga

⁷⁰ www.icc.uz

⁷¹ Иттифоқчилик: Ўзбекистон ва Россия ҳамкорлигидаги янги саҳифа // Фидокор. 2006. 7 март.

olgan rus tilida tahsil ko'radigan guruhlar mavjud. Shunga muvofiq ravishda rus tilida nashr etilgan kitoblar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda har yili respublikamizda umumiy soni 1-1,2 mln ga teng 40-45 turdagi o'quv darsliklari va adabiyotlar nashr etilmoqda. Hozirda rus tilida chop etilayotgan gazeta va jurnallar soni o'zbek tilida nashr etilayotganlar bilan deyarli teng⁷².

Sog'liqni saqlash va sport sohalaridagi o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda Rossiya va O'zbekistonda vujudga kelayotgan turli xil xalqaro xayriya fondlari va uyushmalarni xizmatlari katta bo'lmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida tuzilgan eng mashhur xayriya fondlaridan biri V.Potanin tomonidan tashkil etilgan. Bu ta'lim va madaniyat sohasidagi uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan fondidir. Fondning vazifasi strategik xayr-ehsonni rivojlantirishga yordam berish va faol ijodiy professionallarni shakllanishiga ko'maklashishdir. Fond ijtimoiy muhitni shakllantirdi. Bu muhitda ijod qilish, kasbiy professionallik, ixtiyoriy faollik talab etadi.

Dunyoga mashxur hokkeychi Vladislav Gret'yak asos solgan xayr-ehson fondini fuqarolik tashabbusining yuksak ko'rinishi deb atash mumkin. 1998-yil aprelda Vladislav Gret'yak notijorat xayriya fondini tashkil qildi. Vladislav Gret'yak xalqaro sport akademiyasi nafaqat Rossiya, balki xalqaro miqyosida ham etirof etildi. Fondning nufuzli vazifalaridan biri Rossiya va xalqaro hokkey musobaqalarini tashkil etish, sport faxriylarini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa joylardagi iqtidorli sportchilarni o'sishiga yordam ko'rsatish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Vladislav Gret'yak kubogi uchun turnirlar Rossiyadagina emas, xorijiy mamlakatlarda, jumladan MDH mamlakatlarida ham o'tkaziladi.

Vladislav Gret'yak xayriya fondi nafaqat MDH davlatlarining sport sohasidagi o'zaro munosabatlarini va hamkorligini mustahkamlashga, balki xalqaro sport sohasiga chiqishi va mahoratini oshishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, meditsina sohasidagi o'zaro yordamni tashkil etishga ham xizmat qilmoqda. Vladislav Gret'yak xayriya-ehson fondi 2008-yil 12-16-may kunlari Saratov

⁷² Иттифоқчилик: Ўзбекистон ва Россия ҳамкорлигидаги янги саҳифа // Фидокор. 2006. 7 март.

shahriga bir guruh Kanadalik hirurglarni kelishini uyushtirdi va jarohatlangan bolalarning plastik operatsiya tajribali vrachlar tomonidan amalga oshirildi. Gret'yak fondi va Kanada Fondlarining ko'rsatayotgan yordamlari bir vaqtning o'zida ma'rifatparvarlik xarakteriga ega⁷³. Sog'liqni saqlash missiyasining umumiy nomi "Kelajakka yorug' yuz bilan" deb ataladi. Shunga o'xshash fondlarning faoliyati mamlakat aholisi o'rtasida fuqarolik hissini ko'tarilishiga olib keladi.

Xayriya-ehson faoliyati umumaxloqiy jarayon, unda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari, jumladan Rossiya va O'zbekiston ham faol ishtirok etamoqda. Bu borada har ikki mamlakatda ma'lum darajada tajriba to'plangan, ayniqsa sog'liqni-saqlash, madaniy-ma'rifiy sohalarda yaxshi natijalarga erishilgan. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan olimlar, turli xil ijtimoiy, madaniy, gumanitar-tarbiyaviy soha xodimlari chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan xayriya-ehsonga bag'ishlangan tadbirlarni xalqaro va davlatlararo darajada tashkil etish bugungi kun uchun zarurligini ta'kidlaydilar.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalar matbuot, radio, televideniya, kitob va jurnallar nashr etish vositalari orqali muntazam amalga oshirib kelindi. Yurtimizda chop etilayotgan gazetalarning 90 ga yaqini va jurnallarning 60 ga yaqini rus tilida chop etiladi. "Kamalak TV" kabel kanali orqali har bir fuqaro Rossiya televideniyasining barcha dasturlarini tomosha qilish imkoniga ega⁷⁴.

O'zaro hamkorlik natijasida Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Supa platosida Xalqaro radiostansiya rasadxonasi, Qashqadaryo viloyati Kitob shahri yaqinidagi dunyoga mashhur abservatoriya ishlab turibdi. O'zbekiston va Rossiya Fanlar Akademiyalari va instutlari o'rtasida ilmiy aloqalar yo'lga qo'yilgan⁷⁵.

Ilmiy-pedagogik malakali kadrlarni tayyorlashda o'zaro foydali va samarali hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim va jismoniy sport mashg'ulotlarini tashkil etishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini hamkorlikda amalga oshirish maqsadida Rossiyaning P.F.Lesgaft nomli Sankt-

⁷³ Гуманитарные проблемы современности. - М.: Центр. 2009. с. 36-37.

⁷⁴ Иттифоқчилик: Ўзбекистон ва Россия ҳамкорлигидаги янги саҳифа // Фидокор. 2006. 7 март.

⁷⁵ Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. - Т.: Академия. 2005. Б. 201.

Peterburg davlat jismoniy madaniyat universiteti (Sankt-Peterburg shahri), Sankt-Peterburg jismoniy madaniyat universiteti (Sankt-Peterburg shahri), Moskva jismoniy madaniyat akademiyasi (Moskva shahri), Sankt-Peterburg davlat jismoniy madaniyat ilmiy-tadqiqot instituti (Sankt-Peterburg shahri), Umumrossiya jismoniy madaniyat va sport ilmiy-tadqiqot instituti (Moskva shahri), Sibir davlat jismoniy madaniyat va sport universiteti (Omsk shahri) bo`limlari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan⁷⁶.

Bularning barchasi davlatlarimiz o`rtasidagi keng qamrovli shartnomaviy-huquqiy asosga ega ikki tomonlama munosabatlar izchil rivojlanayotganligidan dalolatdir.

⁷⁶ www.mfa.uz

Xulosa

Mazkur magistrlik dissertatsiyada ilmiy tadqiq etish va atroflicha tahlil qilish uchun dolzarb mavzu tanlab olindi. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi davlatlarining mustaqillik yo'liga kirishi har ikki mamlakat tarixida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. O'zbekiston va Rossiyaning ko'p millatli xalqlari o'z davlatlarini mustaqil taraqqiyot yo'lini o'zlarining xohish-irodasi bilan tanlab olib o'z taqdirini o'zi belgilash, tenglar ichida teng bo'lish, o'zaro do'stona sheriklik aloqalari va ittifoqchilik munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirish yo'liga kirdilar.

Tarixiy jihatdan qisqa, ammo ahamiyati jihatdan asrlarga arzigulik mustaqillik yillarida O'zbekiston va Rossiya o'rtasida strategik sheriklik va yaqin ittifoqchilik munosabatlari qaror topdi.

Magistrlik dissertatsiyasining mazmun-mohiyati, uning tuzilishi va mantiqiy uzviyligini hisobga olib ishning quyidagi muhim jihatlari xulosa sifatida ta'kidlash ahamiyatlidir.

1. Mustaqil O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida keyingi chorak asr - 25 yil davomida tobora mustahkamlanib borayotgan o'zaro aloqa va munosabatlari tarixiga qisqacha bir nazar tashlash lozim. Muhimi shundaki, bu davr davomida O'zbekiston xalqi va Rossiya xalqlari mustabid tuzum zulmidan qutildi, erkin mustaqil rivojlanish yo'liga kirdi. Mavzuning ushbu tomoniga ahamiyat berish alohida xususiyatga ega. Chunki O'zbekiston mustaqilligi deganda, Rossiya Federatsiyasi mustaqilligini ham nazarda tutish kerak, chunki har ikki mamlakat bir vaqtning o'zida sobiq sho'rolar tuzumidan ozod bo'lib o'zlarining mustaqillik yo'llariga kirdilar.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati va asosiy yo'nalishlarni yoritishga shu nuqtai nazardan yondoshish lozim. O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan ko'p tomonlama aloqalari tarixini o'rganish, atroflicha tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri ekanligini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar mahkamasining 2017- yil 14-yanvardagi kengaytirilgan majlisida alohida

ta'kidlandi. Ya'ni bugungi kundagi ishlar va aholi o'rtasida mamlakatlarimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish muhim ahamiyatga egaligi aytib o'tildi⁷⁷.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish bugun har qachongidan ham ahamiyatli ekanligini Rossiya Federatsiyasining Prezidenti Vladimir Putin O'zbekiston Prezidenti bo'lib saylangan Sh.M.Mirziyoyev nomiga yo'llagan tabrigida ham ta'kidladi. Ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar muntazam rivojlanib bordi. O'zaro munosabatlarning mustahkamlanishi va rivojlanishiga O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning qo'shgan hissasi ulkandir. Bu ulug' shaxsning bir necha bor Moskva, Kremlga tashrifi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

2. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar 2004-yil 16-iyunda imzolangan "Strategik sheriklik to'g'risida shartnoma", 2005-yil 14-noyabrda imzolangan "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma" doirasida izchil rivojlanib bormoqda.

3. Yuqoridagi, oliy martabali shaxslar tomonidan imzolangan "Strategik sheriklik to'g'risida va "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi shartnomalar o'zaro hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy hujjatlar bo'lib, mazkur shartnomalarda harbiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalarda o'zaro aloqa va sheriklikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Ushbu shartnomalarda milliy, mintaqaviy va xalqaro havfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek terrorizimga, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga hamda yangi tahdid va havf-xatarlarga qarshi kurashish masalarida yaqin hamkorlik qilish ko'zda tutilgan.

⁷⁷ Ш.М.Мирзиёев. Танкидий таҳлил, қатъий интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. - Т.: Ўзбекистон. 2017. Б. 7.

4. Shuni alohida takidlab o'tish lozimki, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p tomonlama Oliy darajadagi siyosiy muloqotlar muntazamlilik kasb etgan. Misol uchun Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2010-yilning 14-15-aprel kunlari rasmiy tashrif bilan Moskvada bo'ldi. Mazkur tashrif yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida "Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risida"gi Deklaratsiya va boshqa bir qator muhim hujatlar imzolandi, bu o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirdi⁷⁸.

5. O'zbekiston va Rossiya o'rtasida imzolangan qarib 300 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo, parlamentlararo va idoralararo xujjatlar ikki tomonlama hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asosini tashkil etadi⁷⁹.

6. Rossiya bilan O'zbekiston savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik yildan-yilga kengayib bormoqda. 2013-yilning o'zida tovar ayriboshlash hajmi 7,8 mlrd dollardan oshgan. 2017-yilda bu ko'rsatkich 16 milliarddan oshirilishi rejalashtirilgan. O'zbekistonda Rossiyalik ishbiarmonlar bilan hamkorlikda 960 dan ortiq qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. Ularning 150 dan ortiqi to'la-to'kis Rossiya sarmoyasi asosida tuzilgan. Rassiyaning "Lukoil" va "Gazprom" kabi neft-gaz kompaniyalari mamlakatimizdagi uglevodorod konlarini qidirish va o'zlashtirish borasida faoliyat olib bormoqda. Chunki O'zbekiston ham Rossiya ham yoqilg'i-energetika sohasida ulkan salohiyatga ega.

7. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovni 2013-yil 14-15-aprel kunlari Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi davomida V.Putin bilan muhim shartnomalarni imzoladilar.

Uchrashuvda siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar sohalarda hamkorlik dasturi imzolandi. Savdo- iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik, yoqilg'i-energetik kompleksi ham iqtisodiyotning boshqa sohalarida o'zaro hamkorlik masalalari O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hukumatlararo "Iqtisodiy hamkorlik komissiyasi" faoliyati doirasida

⁷⁸ www.uza.uz

⁷⁹ Халқ сўзи. 2017. 6 апрель.

muntazam ko‘rib chiqildi. Ular uchrashuv davomida komissiya faoliyati va istiqbolidagi rejalarni muhokama etishdi.

8. 2015-yilda O‘zbekistonning Rossiya bilan o‘zaro tovar ayriboshlash hajmi 5 mlrd dollardan oshdi. 2016-yil aprel oyida Moskvada o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunlari o‘zaro hamkorlik rivojiga yangi sur‘at bag‘ishladi. 2017-yilda Rossiyaga O‘zbekiston yana ham ko‘proq meva, poliz mahsulotlarini yetkazib berishni ko‘zda tutmoqda.

9. Shuningdek, muzokaralar yakuni bo‘yicha "Investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risida"gi Bitim, 2013-2017-yillarga mo‘jallangan "Iqtisodiy hamkorlik dasturi", atrof-muhitni himoya qilish muassasalari, bojxona va soliq xizmatlari o‘rtasidagi hujjatlar qabul qilindi. Ushbu muzokaralar nihoyatda ahamiyatli bo‘ldi. Ishchanlik muhitida o‘tgan muzokaralarda imzolangan hujjatlar O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, munosabatlarni yangi amaliy mazmun bilan boyitish yo‘lida borayotganligini tasdiqlandi.

10. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtsida o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun “Lukoil” neft kompaniyasi prezidenti V. Alekperov bilan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Oqsaroyda muzokara o‘tkazgan. Muzokaralar neft-gaz sohasidagi loyihalarni amalga oshirish jiddiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Kompaniyaning mamlakatimizdagi neft-gaz konlarini o‘rganish va qazib olish bo‘yicha investitsiyalarning hajmi 2015-yil dekabrga qadar 5 milliard dollardan oshgan. Muloqot chog‘ida jahon va mintaq uglevodorod xom ashyosi bozoridagi bugungi vaziyat yuzasidan fikr almashdi, uzoq muddatli va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning kelajakdagi yo‘nalishlari haqidagi masalalar muhokama qilindi. 2018-2019- yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash dasturi muhokama qilindi.

Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov 2015-yil 15-iyul kuni Oqsaroyda qabul qilindi. Uchrashuvda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar mustahkam strategik sheriklikka asoslangan holda izchil

rivojlanayotganligini takidlagi. O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan o'zaro hamkorligi nafaqat neft-gaz kompaniyalari sohalarid, balki avtomobilsozlik sohasida ham muhim o'rinni egalladi. O'zbekistonga ishlab chiqarilayotgan avtomobillar Rossiyada doimo xaridorgir. "Matiz", "Neksiya" kabi O'zbekiston mashinalari bu yerda bir necha bor yilning eng yaxshi abtomobili deb topilgan.⁸⁰

11. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi O'rtasidagi o'zaro do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlariga O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Vladimir Putin asos solgan Strategik sheriklik munosabatlarini davom ettirishni va yanada mustahkamlashga harakat qilishini mamlakatimizning bugungi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov taziya marosimida yana bir bor ta'kidlab o'tdi. Ushbu marosimda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin jumladan shunday dedi: "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston uchun, o'z xalqining farovonligi uchun ulkan ishlar qilgan. Eng murakkab paytlarda ham tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilgan". Shuningdek, Rossiya davlatlarimizning o'zaro hamkorligini davom ettirish va rivojlantirish tarafdori ekanligini qayd etdi⁸¹.

12. O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan ko'p tomonlama aloqalari va munosabatlarini rivojlantirishda asosiy o'rinni savdo-iqtisodiy hamkorlik tashkil etadi. 2015-2019-yillarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga oid hukumatlararo bitimga muvofiq bu sohadagi aloqalar izchil taraqqiy etib bormoqda. Bu haqida dissertatsiya matnida atroflicha aytib o'tildi.

13. Rossiya O'zbekistonning tashqi savdo sheriklari orasida ikkinchi o'rinda turadi. Xususan Rossiya O'zbekistonga transport vositalari, kimyo va qog'oz sanoati tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradi. O'zbekiston Rossiyaga transport vositalari, paxta tolasi, trikotaj, meva-sabzavotlar, qora va rangli metallar, turli xizmatlar eksport qiladi.

⁸⁰ Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2015. 15 июль.

⁸¹ В.Путин И.Каримов хотирасига ҳурмат бажо келтирди // Халқ сўзи. 2016. 6 сентябрь.

14. O‘zaro tovar ayriboshlash hajmi izchil o‘shib joriy yilning birinchi choragida bu boradagi ko‘rsatgich 7,9 foizga oshgan. Oxirgi ma’lumotlarga qaraganda o‘zaro tovar ayriboshlash hajmi 12,8 foizga o‘shib 7,9 milliard dollarni tashkil etgan. 2017-yil oxiriga qadar bu ko‘rsatkichni 16 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

15. O‘zbekiston va Rossiya o‘zaro madaniy hamkorligi ilm-fan, ta’lim, sport va turizm bo‘yicha vazirlik va idoralar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish, fanlar akademiyalari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va gumanitar sohadagi hamkorlikni tobora rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

16. Toshkentda M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G.Plexonov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, Gupkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti fillialari malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda muvoffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. 2013-2017- yillarga mo‘jallangan madaniy gumanitar va ilmiy-texnikaviy sohalarda hamkorlik dasturi imzolangan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinlar tomonidan imzolangan hujjatlar ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, o‘zaro munosabatlarni yangidan-yangi ilmiy va amaliy ishlarni rivojlantirish yo‘lida xizmat qilmoqda.

17. 2016-yil 25-26-aprel kunlari O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning Kremlda norasmiy uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, harbiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama etildi.

Uchrashuvda O‘zbekiston - Rossiya munosabatlarida savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy o‘rin tutadi, - deb ta’kidlandi. Rossiya O‘zbekistonning tashqi savdo sheriklari orasida ikkinchi o‘rinda turibdi⁸².

Umuman, umumlashtirib xulosa qilib aytganda, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar keng qamrovli bo‘lib, ular diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, harbiy,

⁸² Стратегк шерикликнинг янги босқичи // Халқ сўзи. 2016. 27 апрель. .

ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa sohalarni qamrab olgan. Bu munosabatlar ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda jadal suratlarda rivojlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2014.
2. Давлат тили ҳақида Ўзбекистон Республикасининг қонуни. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар таййёрлаш Миллий дастури. – Т.: Шарқ, 1998.

Prezident Sh.Mirziyoyev asari:

1. Ш.М. Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

Birinchi Prezident Islom Karimov asarlari:

1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. Биз келжакимизни ўз қолимиз билан қурамыз. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. 9-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2001.
6. Каримов И.А. Хавсизлик ва тинчлик учун қурашамиз. 10-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
8. Каримов И.А. Ватанга қасамёд, мардлик ва жасорат мадҳияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
9. Каримов И.А. Ўзбек халқига тинчлик, омонлик керак. – Т.: Ўзбекистон, 2014.
10. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон, 2013.

11. Каримов И.А. Ўзбекистон буйук келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1999.

12. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999.

Asosiy adabiyotlar:

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиқ тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.

2. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999.

3. Миллий ғоя: асосий тушунча ва тамойиллари. – Т.: Ўзбекистон, 2001.

4. Ўзбекистон қарамли ва мустақиллик йилларида. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

5. Шермухамедов С. Биз қандай жамият қурмоқдамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1999.

6. Ўзбекистонда барпо этилаётган жамият. – Т.: Янги аср авлоди, 2001.

7. Сайдиллаев А.Алиқулов Б. Ўзбекистон тарихи : Давлат ва жамият тарақиёти. – Т.: Академия, 2000.

8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-қитба. Туркистон чор Россияси даврида. – Т.: Шарқ, 2000.

9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-қитба. Ўзбекистон совет мушамлақачилиқ даврида. – Т.: Шарқ, 2000.

10. Халқ хотираси олдида бош эгамиз. – Т.: Шарқ, 2001.

11. Шодиев Ф.А. Российская Федерация - Республика Узбекистан: перспективи сотпудничества. Актуалние вопросы инновационной эканомика. 2015. №9.

12. Ғафарли М.С, Касаев А.Ч. Ривожланишнинг Ўзбек модели: Тинчлик-тараққиёт асоси. – Т.: Ўзбекистон, 2001.

13. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. – Т.: Академия, 2005.

Davriy matbuot materiallari:

1. Стратегк шерикликнинг янги босқичи //Халқ сўзи. 2016. 27 апрель.

2. Россия - Ўзбекистон ҳамкорлик ривожланмоқда // Халқ сўзи. 2000. 20 май.

3. Иттифоқчилиқ: Ўзбекистон ва Россия ҳамкорлигидаги янги саҳифа // Фидокор. 2006. 7 март.

4. Тошкентда россия фани ва маданияти маркази //Халқ сўзи. 2005. 19 октябрь.

5. Ўзбекистон – Россия: Таълим соҳасидаги ҳамкорлик //Халқ сўзи. 2006. 20 апрель.
6. Илм-фан тараққиётининг янги босқичи //Халқ сўзи. 2017. 10 январь.
7. Ўзбекистонга таҳдид - Россияга таҳдидир // Халқ сўзи. 2000. 20 май.
8. Муносабатларнинг изчил ривожини //Халқ сўзи. 2007. 29 ноябрь.
9. Ўзбекистон – Россия: Доимий ҳамкорлик йўлида //Халқ сўзи. 2016. 23 июнь.
10. Ўзбекистон - Россия стратегик шерикликни янада мустаҳкамлаш йўлида //Халқ сўзи. 2014. 10 декабрь.
11. В.Путин И.Каримов хотирасига ҳурмат бажо келтирди // Халқ сўзи. 2016. 6 сентябрь.
12. Биз тенглик асосидаги ҳамкорлик тарафдоримиз //Халқ сўзи. 1999 йил, 12 февраль.
13. Ўзбекистон ва Россия - тенг ҳуқуқлилар мулоқоти //Халқ сўзи. 1991. 29 октябрь.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ш.Мирзиёевнинг сайловолди дастури //Фарғона ҳақиқати. 2016. 16 ноябрь.
15. Ўзбекистон ва Россия: ишонч қафолати // Моҳият. 2005. 1 июль.
16. Ўзбекистон - Россия //Халқ сўзи. 1998. 6 май.
17. Россия ва Ўзбекистон Бош вазирлари иқтисодий ҳамкорликни муҳокама этдилар //Халқ сўзи. 2008. 3 сентябрь.
18. Ҳамкорликнинг уфқи кенг(Ўзбекистон ва Россия Федерацияси олий ўқув юртлари ўртасидаги алоқалар юксалиш палласида) // Маърифат. 2005. 19 ноябрь.
19. Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2013. 3 декабрь.
20. Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2016. 25 май.
21. Оқсаройда қабул // Халқ сўзи. 2015. 15 июль.

Internet sahifalari:

1. <http://www.icc.uz>
2. <http://www.uzreport.uz>

3. [http://www. press-servise.uz](http://www.press-servise.uz)
4. <http://www. mfa.uz>
5. <http://www. uza.uz>
6. <http://www. rea.uz>
7. <http://www. gov.uz>
8. <http://www. arxiv.uz>